

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOYIY-IQTISODIY FAKUL'TETI

IJTIMOYIY-MADANIY FAOLIYAT KAFEDRASI

SOTVOLDIYEV SHOHRUH ABDUQODIR O'G'LI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA YARATILGAN O'ZBEK
ROMANLARIDA IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTNING AKS
ETTIRILISHI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MUNDARIJA

KIRISH	3-6
I bob. BUGUNGI O‘ZBEK ROMANLARIDA DAVR, TARIX, ZAMON MASALASI VA YANGI TAMOYILLAR.	
1.1. Istiqlol davri romanlarida davr, muhit va inson fojeasining badiiy ifodasi..	7-24
1.2. Mustaqillik yillarida tarix va tarixiy shaxslarga yangicha qarash.....	24-42
II bob. YANGI YO‘NALISHDAGI ROMANLAR VA ULARDAGI OBRAZLAR TIZIMI	
2.1. Bugungi kun romanlarining o‘ziga xosligi va ularda ijtimoiy hayotning aks ettirilishi.....	43-52
2.2. Istiqlol davri muammolarining inson tabiati, ma'naviyati, ruhiyatidagi badiiy ifodasi.....	52-65
Xulosa.....	66-68
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	69-71

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarimizga, adabiyotimizga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. O‘zbek xalq badiiy ijodi ham ma’naviy boyligimiz hisoblanadi. Mustaqillik xalqimiz, millatimiz taraqqiyoti uchun keng ufqlar ochib berdi. Har bir sohada bo‘lgani kabi ijod sohasida ham yangilanishlar, islohotlar yuz berdi. Adabiyotga, ijodkorlarga e’tibor yanada kuchaydi. Birgina “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotining ta’sis etilishi buning yorqin dalilidir.

Barchamizga ma’lumki, sobiq sho’rolar davrida boshqa soha vakillari qatorida ijod ahliga ham oson bo‘lmagan. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Tabiiyki, davr taqozosiga ko‘ra, yozuvchilar yashash uchun, o‘z iste’dodini ro‘yobga chiharish uchun kommunistik tuzum bilan murosa qilishga majbur bo‘lgan. Shu ma’noda, mustabid tuzum davrida vijdon azobini kim ko‘proq tortgan, desa, men, doimo bu hayotning ma’no-mazmuni, insonning qadr-qimmatini, el-yurt taqdiri haqida qayg‘urib yashaydigan odamlar va ularning oldingi qatorida bo‘lgan ijod ahli, deb aytgan bo‘lardim”, deb aytgan gaplari yozuvchilikning zahmatkash kasbligini isbotlab turibdi. “Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqimizning sobiq mustabid tuzum davrida toptalgan haq-huquqlari, milliy an’ana, urf-odat va qadriyatlarimiz, o‘zlikni anglash, adolat ustivorligi asosida yashah hayotimiz mezoniga aylandi”¹.

“Mening fikrimcha, - deydi yozuvchilar bilan bo‘lgan bir suhbatda Prezidentimiz, - yozuvchilik - bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste’doddir. Bu - qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qaerda o‘qitib, o‘rgatib bo‘lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo‘lsa, bir umr hayotning ichida bo‘lish, o‘z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo‘lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir”. Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviy

¹ Амалга ошираётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажакимизнинг асосий омилидир // Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий қўлланма.. – Т.: Ўқитувчи, 2014. – Б. 7.

boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaqo xazinasini va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Har bir davr o'z muammosi, konsepsiyasi, poeziyasi va qiyofasiga ega bo'ladi. Bu hol nafaqat odam, balki jamiyat faoliyatiga ham ta'sir qilib, uning yo'nalishini ham belgilaydi. Ma'lumki, hayotdagi har bir o'zgarish inson faoliyatisiz kechmaydi. Bu o'zgarishlar, yaratishlar inson sa'y-harakati, uning dunyoqarashi, konsepsiyasiga bog'liq. Akademik D. S. Lixachev qayd etgandek, "davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali tasvir omiliga aylanadi. Bunda u har kimga har xil ta'sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o'rni². Bu jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, siyosiy ma'rifiy va ma'naviy qarashlarni inson qalb tug'yonsiz, iztirobsiz, ma'naviy dunyosiz tasavvur qilish mumkin emas. Inson — bu umumiy tushuncha. Inson deganda biz ko'proq unda mujassamlashgan umuminsoniy, abadiyatga daxldor tomonlarni nazarda tutamiz. Bunday tomonlardan biri va eng muhimi - tafakkur. Inson tafakkurida o'zgarish bo'lmas ekan, hech bir ijtimoiy narsada o'zgarish bo'lishi dushvordir. Inson tafakkuridagi o'zgarish davr va jamiyatdagi o'zgarish ta'sirida bo'lishi tabiiy hol, o'z navbatida, jamiyatning to'g'ri yo'nalishini belgilash bilan birga, o'zining hayotdagi o'rnini va mavqeyini ham namoyon hamda insoniyat diqqatini jalb qiladi. Bu narsa o'zbek romanlarida o'z ifodasini topmoqda. Demak, ularda voqea-hodisalar emas, insonning o'zi, uning o'y-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, ruhiy olami yetakchilik qilyapti, tasvirlanyapti, ochib berilyapti.

Hayotdagi, insoniyat ruhiyatidagi o'zgarishlarini bugungi o'zbek romanlari qahramonlari faoliyatida badiiy aks ettirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan va yoritaypti. Shuningdek, u imon va e'tiqod, axloq, ma'naviyatga, milliylikka katta e'tibor beryapti.

Bugungi kun romanchiligi kechagi romanchilikdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni odamning qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko'rinishlari inkishofi hamda voqea-hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo'naltirilganligi, qahramonlarning o'ta

² Лихачев Д. С. Текстология: На материалах русской литературы X - XV веков. –Л., 1983. с.37.

milliy va individuallashtirish, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi ila o'ziga xoslikka ega. Agar umumlashtirib aytsak, voqea-hodisadan ko'ra, insonning, uning qalbi tahlili birinchi o'ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi. Ushbu masalalarni bugungi kun nuqtai nazaridan va istiqloq davrida yaratilgan romanlar vositasida tahlil qilish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillikdan keyingi davrlarda ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr adabiyoti ko'pgina adabiyotshunoslar tomonidan o'rganildi va o'rganilmoqda. Xususan, filologiya fanlari doktori, professor H. Karimov³ va filologiya fanlari doktori, professor N. Rahimjonovlarning⁴ monografiya, risola, adabiy portret, o'quv qo'llanmalari, adabiyotshunoslikka oid maqola va taqrizlari mavzuni o'rganishda adabiy manba sifatida yordam berdi. Bulardan tashqari bu davrda adabiyotshunos olimlar ham samarali ijod qilib kelmoqda. Jumladan, U. Normatov⁵, N. Komilov, I. Haqqulov, U. Hamdamov⁶, Sh. Turdimov⁷, N. Sharopova, X. Umurov, Ya. Qosimov, Jamol Kamol, Sh. Hasanov, N. Rahimjonov kabi adabiyotshunos va tanqidchi olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Biz mavzuni yoritishda yuqorida nomlari keltirilgan adabiyotshunoslar tadqiqotlari va ilmiy maqolalaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Kichik tadqiqotning asosiy maqsadi eng yangi, ya'ni hozirgi adabiy jarayonda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, adabiy jarayonda rol o'ynagan omillarni, bugungi o'zbek adabiyotida janr va shakl izlanishlari hamda muammolarini hamda falsafiy qarashlar mohiyatini mustaqillik davrida yaratilgan badiiy asarlar vositasida ochishga qaratilgan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

³ Karimov H. Istiqloq davri adabiyoti. Darslik. –T.: Yangi nashr, 2010. Karimov H. Istiqloq davri she'riyati. – Toshkent: Yangi nashr, 2009. Karimov H. Insoniy iztirob va tuyg'ular//Sharq yulduzi. –T.: 2003.-№ 2. Karimov H. Shukur Xolmirzayev. –T.: Qatortol, Kamolot, 1999. Karimov H. O'zlikning badiiy ifodasi//O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2003, 11 iyul soni.

⁴ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. –T.: Fan, 2007. Rahimjonov N. Asqad Muxtor poetikasi. – Toshkent: Fan, 2003. Rahimjonov N. Halima Xudoyberdiyeva lirikasi. –T.: Fan, 2004.

⁵ Normatov U. Tafakkur yog'dusi. –T.: 2005. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Fan, 2000.

⁶ Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.

⁷ Sh. Turdimov. Lirik kechinma va obrazlilik. O'zbek tili va adabiyoti, 2000. № 5-6.

- Adabiy jarayonda an'ana va novatorlikning o'ziga xosligini o'rganish;
- Bugungi o'zbek romanlarida davr, tarix, zamon masalasi va yangi tamoyillarni tadqiq qilish;
- Istiqlol davri romanlarida davr, muhit va inson fojeasining badiiy ifodasi aniqlash;
- Mustaqillik yillarida tarix va tarixiy shaxslarga yangicha qarashni romanlar misolida o'rganish;
- Yangi yo'nalishdagi romanlar va ulardagi obrazlar tizimini tahlil qilish;
- Bugungi kun romanlarining o'ziga xosligi va ularda ijtimoiy hayotning aks ettirilishi ko'rib chiqish;
- Istiqlol davri muammolarining inson tabiati, ma'naviyati, ruhiyatidagi badiiy ifodasini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy – uslubiy asosi. Mavzuni yoritish davomida ilmiylik, xolislik, tarixiylik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi. Tadqiqot jarayonida tanlangan mavzuga milliy va ma'naviy qadriyatlar, ilmiy g'oyadan kelib chiqqan holda yondashildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar va tarixiy xotiraning mohiyati, milliy madaniyatni takomillashtirish va ma'naviy komillikka erishish haqidagi asarlaridagi nazariy qarashlariga suyanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 71 betni tashkil qiladi.

I bob. BUGUNGI O‘ZBEK ROMANLARIDA DAVR, TARIX, ZAMON MASALASI VA YANGI TAMOYILLAR

1.1. Istiqlol davri romanlarida davr, muxit va inson fojeasining badiiy ifodasi

Hayot va jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Tafakkurda o‘zgarish bo‘lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o‘zgarish bo‘lishi dushvor. Istiqlol davrining yuzaga kelishi ham shuning mahsulidir. Ma'lumki, o‘z navbatida har bir jamiyat o‘z muammosini yuzaga keltiradi, shunga muvofiq insoniyatning hayotga qarash tarzini ham o‘zgartiradi. Bu ruhiyat bilan bog‘liq masaladir. 70 yil davomida ma'naviyat, milliy ahloq asosi bo‘lgan dinidan, o‘tmishda o‘zini kim bo‘lganligini namoyon qilish qudratiga ega bo‘lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo‘lgan xalq istiqloldan keyin bunga muyassar bo‘lgach, unda o‘zidan, o‘z millatidan g‘ururlanish tuyg‘usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo‘ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo‘ladi. U hamma narsani yorqin ko‘radi, mohiyatini to‘g‘ri anglaydi. Bu borada Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deydi: "Odamlarda o‘zligini anglash, milliy g‘urur, oriyat, o‘tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o‘z qo‘limizga olganimizdan g‘ururlanish kabi tug‘ular kamol topyapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapti"⁸. Bu fikr bugungi kun adabiyotiga ham tegishlidir.

Roman "zamondan oziqlanadi, zamon esa undan o‘z qiyofasini qidiradi, uning vositasida o‘zini yanada yaxshiroq anglashga harakat qiladi"⁹. Bu ayni haqiqatdir. Chunki romanda zamon va davr qiyofasi o‘z ifodasini topadi. Bu yerda zamonning zamirida insonlar yotgani, tadqiqotchi shuni nazarda tutgani aniq. Tog‘ay Murodning romanlarini o‘qigan kishi bunga ishonch hosil qiladi. Uning "Otamdan qolgan dalalar" romanida muhim bir hayotiy va falsafiy haqiqat yorqin badiiy aks ettirilgan.

⁸ Karimov I. A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. —T.: O‘zbekiston, 1996. —B. 226.

⁹ Зондиев Л. Тропы времени. - М., 1984. Стр. 3-4.

Asarning bosh qahramoni Dehqonqul o'zbek xalqining timsolidir. Adib ana shu adabiy timsol vositasida xalqimiz mustamlakachilik davrida qul kabi ishlab, qul kabi xor-zor kun kechirib kelganini ochib tashlagan. Roman voqealari o'n bobda hikoya qilinadi. Shundan sakkiz bobida bevosita Dehqonqulning hayoti va u bilan bog'liq bo'lgan fojiali voqealar aks ettiriladi.

Dehqonqulning bobosi farg'onalik Jamoliddin Ketmon (birinchi avlod vakili) — erkin inson. Uning o'z yeri, o'z suvi bor. Bundan u ichki bir erk tuyg'usi bilan g'ururlanadi. Jamoliddin dehqonchilikni jon-dilidan sevadi. U o'z dalasida ter to'kib, zavq-shavq bilan ishlaydi. Halol mehnat evaziga mo'l hosil olib, beminnat yashaydi. Biroq Turkistonning chorizm tomonidan zabt etilishi natijasida Jamoliddinning tinchligi buziladi. Bosqinchilar yerni ham, suvni ham bulg'ab, harom qiladilar. Oqibatda, yerdan va suvdan baraka ketadi. Jamoliddin toza yer-suv izlab, o'lka bo'ylab ko'p joylarni sarson-sargardon kezadi. Lekin u qayerga bormasin, hamma joyda bosqinchilar zulmidan ozor chekadi. Oxiri Buxoro amirligiga qarashli Denov hududiga ko'chib borib, birmuncha vaqt ancha tinch tirikchilik o'tkazadi.

Farg'onaga ruslar kirib kelmasdan avval romanning bosh qahramoni Dehqonqulning bobosi Jamoliddin birovga qulluq, xizmat qilishga or qiladigan imonli, chapdast, jo'mard kishi bo'lgan. Bitta u emas, boshqalar ham shunday tabiatga ega bo'lishgan. G'ayridinlarni hech qachon el bo'lmasligini qadimdan bilishgan, shundan ulardan o'zlarini olib qochishgan. Imoni but bo'lgani sababli harom-harishdan o'zlarini olib qochishgan. Jamoliddin ketmon dalasida g'ayriddin juda sharmandali alfozda yotganligi uchun u yerni harom sanab, shuncha mehnati zoe ketishiga qaramay, uni tark etadi.

Jamoliddin ketmonning bu tutgan ishida katta ramziylik va umumlashma fikr bor, yer va suvni pok tutishlik, inson jismini pok tutishlik demakdir. Pok tandagi ruh ham pok bo'ladi. Shundan qadimda yer va suvni qadrlashgan, u katta qadriyat hisoblangan. Jamoliddin ketmonnin tutgan ishi, ya'ni makrux qilingan yerni tark etishi, suvni bulg'anishiga e'tirozi sof musulmon kishining tutgan ishidir. Chunki "Qur'on"ning "Ol-i Imron" surasida: "Ey, mo'minlar, o'z'laringni qo'yib,

munofiqlarni sirdosh do‘st tutmanglar! Ular sizlarga zarar yetkazishda kuchlarini ayamaydilar va yomon holga tushishingizni orzu qiladilar. Ularning sizlarni yomon ko‘rishlari og‘izlaridan oshkor bo‘ladi. Dillaridagi adovatleri esa yanada kattaroqdir" (118-oyat). "Kufarga qarshi kurashda sustlashmangiz! Agar iymon egalari bo‘lsangizlar, sizlar ustun bo‘lguvchidirsizlar" (135-oyat).

Bu falsafiy va hayotiy haqiqatga ajdodlarimiz hamda ota-bobolarimiz amal qilishgan. Shundan turkiy qavmdagilar do‘st-birodar bo‘lishgan, bir-birini qo‘llab quvvatlashgan. Bu hol, ayniqsa, oddiy mehnatkash xalq orasida kuchli bo‘lgan. Chunki ular Qur'on, hadislar rukniga amal qilishgan. Jamoliddin ketmon o‘z dalasini tashlab, boshqa ekin bitadigan yer qidirganda, topolmaydi. Bari yer ketmon ko‘rmagan bo‘ladi. "Shunda, Qurbon qoraqirg‘iz o‘z dalasini beradi. - Ana, ol, o‘zbek", -deydi. Qoraqirgiz qirlarda mol boqadi. O‘zbek dasht-dalada ekin ekadi.

Bobomiz Qurbon qoraqirg‘izni quruq qo‘ymayin deya, qo‘yin kavlaydi.

Qurbon qoraqirg‘iz bobomiz bilagidan ushlaydi.

- Tek o‘tir, o‘zbek, tek o‘tir, - deydi. O‘zbek qo‘ynida bo‘ldi nima, qirg‘iz qo‘ynida bo‘ldi nima"¹⁰. Bu hol bugungi kunda, vaziyatda kishini o‘ylashga, undan ma'lum bir xulosa chiqarishga da'vat etadi. Insonning jo‘mardligi, Vatanga sadoqati gap-so‘zi bilan emas, bajargan a'moli va faoliyati bilan belgilanadi. Romanda hayotiy haqiqat o‘zining badiiy in'ikosini topgan. Birinchi bobda biz oqpodsholarning‘ yurtimiz, xalqimiz boshiga solgan kirdikorlarini ko‘rib xalqimizning fojaviy tarixining bir sahifasini varaqlasak, ikkinchi bobda esa qizillarning xalq ustidan mutlaq hukmronligi va siyosatning tub mohiyatini anglaymiz. Bu holni biz Aqrab a'moli va faoliyatidan ogoh bo‘lamiz.

Jamoliddin Ketmonning o'g'li Aqrab (ikkinchi avlod vakili) ning qismati ham fojiali. Surxon yurtida voyaga yetgan Aqrab - vijdonli, mard yigit. U otasi singari o'z mehnati bilan o'z kunini ko'rishni, erkin yashashni istaydi. Shu maqsadda bosqinchilarga, qizillarga qarshi jang qiladi. Aqrab sho‘rolarning kimligini

¹⁰ Тоғай Мурод. Отамдан колган далалар. - Т.: Шарқ, 1999. 20-бет (бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олинади ва фақат бети кўрсатилади).

anglagach, birinchi kundan boshlab qo'liga qurol olib, Vatanining mustaqilligi uchun kurashadi. Lekin u ezgu maqsadiga erisha olmaydi. Uni o'z hamqishlog'i Normurod faol qizillar qo'liga tutib beradi. Shu tariqa Aqrab bosqinchilarga qarshi ozodlik yo'lida halok bo'ladi.

Yo'lda qizillarning boshlig'i Chanishev bilan shunday suhbat bo'ladi: "Chanishev! -deydi. - O'zi meni qayoqqa olib ketyapsan? - Yurchiga. - Undan keyinchi? - Toshkentga. - Toshkentdan keyin-chi? - O'rusiyaga".

Bu savol-javobdan keyin Aqrab Chanishevdan o'zini shu yerda otishini iltimos qiladi va unga qarata shunday deydi: "... Chanishev! Sen meni O'rusiyaga olib borasan-da, paqillatib otib tashlaysan. Qaysi bir o'raga kafansiz ko'mib tashlaysan. Vatan gadosi - kafan gadosi bo'lib o'laman. Kafansiz kim el-yurtimga olib kelib ko'madi? Kafansiz o'ligim it o'liqdayin O'rusiyada qolib ketadi! Ana unday keyin, bola-baqram qaerlarga borib otamlab yig'laydi? Bola-baqram qaysi mozorim boshig'a borib yig'laydi? Bola-baqram ulug' ayyom kunlarda qaysi mozoriga chiroq qo'yadi? Shunday ekan, otarman bo'lsang, mana ko'krak - ot! Lekin o'z el-yurtimda ot! Shahid bo'lsam, o'z yurtimda shahid bo'layin! Shahidimni o'z el-yurtim ko'msin!" (45 bet). Aqrabning bu jo'mardligi va Vatan tuprog'ini muqaddas bi-lishiga polkovnik Chanishev ham tan beradi. U shunday deydi: "... Men seni bir yo'lto'sar deb eshitib edim. Bir kallakesar deb eshitib edim. Bir vahshiy deb eshitib edim. Seni endi bildim. Aqrab qo'rboshi, sen asl jigit ekansan, asl jigit!"(48 bet).

Insoniy fojia turli asoslarda vujudga keladi. Bularning ichida eng dahshatlisi, imonsizlik, o'z manfaati yo'lida qilingan sa'y-harakat, insonga bepisandlik bilan qarash oqibatida qalbning, o'zgalarning ozor topishidir. Maktab direktori obrazida mazkur haqiqat o'z ifodasini topgan. Unga ism ham berilmagan. Yozuvchi buni ataylib qilgan. Bu bilan aksar direktorlar shu toifadagi shaxslar degan g'oyani ilgari surgan. Bu g'oya haqiqatdir.

Totalitar tuzumda, odatda, beshinchi sinfdan boshlab paxta frontiga safarbar etilardi. O'ninchi sinf bolalarining o'qish nima bo'ladi, deb bergan savoliga "Paxtazor daftaring bo'ladi, g'o'zalar husnixating bo'ladi", - degan javob oladi.

Davr mafkurasi va siyosati hayotga qanchalik singib ketganligi shu odamning gap-soʻzi, xatti-harakati orqali anglatiladi.

Bolalarni paxtaga mashinada olib ketayotganda, kabinadan mashina pillapoyasiga chiqib: "Oʻrtoqlar, oʻlan-laparlar aytmanglar! Partiya-sovet qoʻshiqlaridan aytinglar", deydi. U qanday gap gapirsa, oʻz tilidan emas, albatta, markaz-byurodan, rayon, partiya komiteti birinchi sekretari Mavlonov tilidan gapiradi¹¹.

Direktor hech bir oʻquvchining qismatini oʻylamaydi, ular uchun qaygʻurmaydi. Buni sezgan paxtakorlar yordamchilarga oʻligini tashlab olishadi. Dalada nima yumush boʻlsa, brigadir direktor oldiga keladi. "Paxta ortishga uchta bola bering. Paxta tushirishga ikkita bola bering. Dori sepishga bitta bola bering", - deydi. Direktor bunday ishlarga oz te-ruvchilarii joʻnatadi. Samodyotga yoʻl koʻrsatuvchilikka odam soʻraganda, unga beshinchi sinf oʻquvchisi Dehqonboy Jamoliddinovni beradi. Direktor bilan oʻqituvchilar oʻrtasida shunday gap ketadi: "Oʻrtoq direktor, endi bolani dori sepiluvchi dalaga yuborib boʻlmaydi. Onasini bilasiz - kimsan Bolxin terimchi. - Bolxin boʻlsa nima boʻpti? - deydi direktorimiz.

- Bolxin terimchi obroʻ-e'tiborli ayol. Bolaga bir nima boʻlib qolsa, onasidan baloga qolasiz".

Ular bolalarga bir nima boʻlishini, ya'ni oqibati fojia ekanligini bilishadi. Bilishgan holda norasidalarini shu yumushga ravo koʻrishadi. Ayniqsa, Dehqonqulning oʻrniga qaysi bolani yuborishni maslahat qilishgan oʻrnini oʻqib, kishi titrab ketadi. "- Choʻliboev Ziyod? - Bir qari onasi bor. Direktorimiz shahodat barmogʻini nishladi. - Ana shu boʻladi! - dedi". Bu hol qabohatlikdan boshqa narsa emas.

Ziyod dori sepilgan paxtazorda hushidan ketib, yotib qoladi va bir kun yotib, olamdan oʻtadi. Bunga uning oʻzini aybdorga, ya'ni dori sepilgan maydonda uxlab qolganga chiqarishadi.

¹¹ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. -T.: Yangi nashr, 2010. –B. 101.

Ziyodning onasini u yotib qolgan paxtazordan biron-bir nima topamanmi degan ilinjda maydonga termulishi, tikilishi va "Ziyod-u-u-u, Ziyod-u-u-u" deb chaqirishida ham katta ma'no bor. Bu chaqirish adolatsizlikdan zardobga to'lgan qalbning nidosidir.

Inson o'zi bilgan, tajribadan o'tkazgan, haqligiga yuz foiz ishongan narsasini asoslash o'rniga uning tamom teskarisi aytilsa, o'shani bajarish, katta iqtisodiy zarar keltirishni bilgan holda ijro etishga kirishish katta fojidadir. Chunki bunda inson jismi emas, ruhi, qalbi ham lat yeydi. Ma'lumki, odam jismini davolasa bo'ladi, ruh, qalbning ishi qiyindir. Bu hol totalitar jamiyatning yorqin ko'rinishidir.

Insonning hayotdagi o'rni, uni inson deb tan olishiga imkon beradigan tuyg'ulardan biri va asosiysi g'ururdir. Bu fazilatning yo'qligi esa insoniy illatlarning urchishiga sharoit va muhit yo'lini o'taydi. G'ururi yo'q misoli temir odamga o'xshaydi. O'zi qilishi lozim bo'lgan ishni, buyuril-gan yumushni qoyilmaqom qilib bajaradi. Evaziga hech narsa so'ramaydi. Temir odam uchun zaryad kifoya qilgandek, g'ururi yo'q odam uchun esa tirikchiligi o'tsa bo'ldi. Uchinchi avlod -Dehqonqul - shunday odam. G'ururi yo'q odamda insoniy sha'n ham bo'lmaydi. Kolxoz raisi to'y kelgan kun Dehqonqulni o'g'li-dan so'ratadi. U daladan kelgach, rais uyiga chiqadi. O'zaro shunday gap-so'z kechadi: "Ha-a-a, chaqirgan ekansiz, Rais bova?"

- Chaqiribman? Qachon? E, ha-a, bugun Dehqonobdagi quda bo'lmishlar ikkita fotiha qo'y tashlab ketib edi. Shu qo'yning birovini so'yib, rayon kattalarini chaqirayin dedim.

- O'zimga ayting edi, daladan vaqtliroq kelib, so'yib berar edim.

- Bo'ldi-bo'ldi, Klara Xodjaevaning shopiriga so'yirdim. O'zimiz so'yib, o'zimiz yeb yotibmiz... Bo'pti, Dehqonqul aka, -dedi raisimiz" (118-bet).

Rais uni na ichkariga, na choyga taklif qiladi. Xonadondagilarga osh-non qo'yishni buyurmaydi. Dehqonqul bo'lsa buni ko'ngliga olmaydi.

Bir kuni rais yana Dehqonqulning qo'liga go'sht tutqazadi va uyidagilar mehmonbop ovqat qilishini, o'zi ketib qolmasdan qarashini aytadi. Dehqonqul

yarim kechada tuz totmasdan kech holda uyiga keladi. Shunda ham o'zini qadriyatini o'ylamaydi, insoniy sha'ni toptalganidan vijdoni qiynalmaydi.

O'rinsiz joyda esa o'zining "g'ururini" ko'rsatadi. Ayolining gapi bilan Dehqonqul shlyapa olgani rayon markazidagi univermagga keladi. Sotuvchi qizlar unga hayron bo'lib qarashadi. Qizlardan shlyapani ko'rsatishni so'raganda, ular qaysi razmerdan deyishadi. Bilmagach, bir nechtasini oldiga qo'yadi. Narxining besh so'mligini eshitib, Dehqonqul bir cho'chib tushadi. Olmay qaytmoqchi bo'ladi. Yana bir so'mlik pullarini qayta-qayta sanab sotuvchi qizga tutadi. Baxmalga ko'zi tushgach, uning narxini so'raydi. "Olmasangiz nima qilasiz... Besh so'mlik shlyapani ko'rib yuragingiz yorilib ketay dedi-yu... So'zana qimmat, ellik so'm", deganiga xotini un olib kelishi-ga bergan puliga so'zanani oladi va magazinning bir burchagiga o'tirib, o'rtasidan ikkiga bo'ladida, oyog'iga paytava qilib o'rab, etigini kiyadi. Qilgan ishidan g'ururlanadi. Mazkur roman haqida taqriz yozgan adabiyotshunoslar Dehqonqulda insoniy g'urur so'nmagan. Bu mana shu o'rinda yaqqol o'z isbotini topgan, deb uning mazkur ishini oqlashadi. Lekin bu to'g'ri emas. Chunki oila iqtisodiga, byudjetiga, bolalari rizqiga zarar keltiradigan har qanday faoliyat ijobiy sanalmaydi. Oilani qaqshatish evaziga, uning rixsi hisobiga boyvachchalik qilish, o'zining iqtisodiy qudratini ko'rsatib qo'yishlik orqali g'ururlanish bu g'ururlanish emas, yumshoq qilib aytganda, axmoqlik, to'g'rirog'i, tentaklikdir.

Kishining kasb-kori, lavozimi, bajargan yumushi, u istaydimi, yo'qmi, tabiatida o'z tamg'asini qoldiradi. Ma'lumki, kechagi tuzumda paxta insondan ham ustun qo'yilgan. Dehqonqulning vazifasi esa paxtakor. Vazifasi tabiatiga shu qadar singanki, u o'z oilasi, farzandlaridan ham paxtani ustun qo'yadi. Bolalariga ko'rsatmagan mehrni paxtaga ko'rsatadi, bolalariga qilmagan parvarishni paxtaga qiladi. U hatto xotini o'ziga o't qo'yib, o'lim bilan olishib yotganda ham, paxtasini o'ylaydi. Bosh shifokorning "Kuyganlar uchun alohida kasalxonalar bor, Moskvada bor, yaqin desang, Dushanbedayam bor. Kasalingni olib ket, biz boshqa saqlab turolmaymiz", - deganiga. "Eb-ye, u nima deganingiz? Qayoqqa olib

ketaman? Qanday olib ketaman?.. Buyog‘i ura-ura paxta bo‘lsa. Paxta nima bo‘ladi?" - deb javob beradi.

Tog‘ay Murodning mahorati shundaki, insonning insoncha yashamagan holatlarini, ya'ni katta insoniy fojiani shunchaki bayon-hikoya qilmaydi, tasvirda ko‘rsatadi, detallarda asoslaydi va mohiyat kasb etadi. Bir kuni Dehqonqulning ko‘zi xotinining o‘ng qo‘ltig‘i ostiga tushadi. Ko‘ylagi qizil bo‘lsa-da, qo‘ltig‘ining tagi olachaliq oq edi. U qo‘ltig‘ining ostiga oq yamoq solganmikan deb o‘ylaydi. Tikilib qarasa, chang aralash, kir aralash ter ekan. Chunki boshqa kiyimi yo‘g‘idan dalada ham bir ko‘ylakda, uyida ham shu ko‘ylakda yuradi, tunda ham shu ko‘ylakda yotadi. Yana bir kuni boshini bilagiga olganda, ayolining sochidan butifos hidi keladi. U hayron. Hali dalaga butifos sepilmagan bo‘lsa, hid qaerdan? O‘ylay o‘ylay topadi: "Ayolim Jararikdan molga o‘t olib keladi. O‘tni boshida ko‘tarib keladi. Bu hid o‘tgan yili sepilib, haliyam o‘tlarda yotmish butifos hidi bo‘ldi". Ko‘ylak, ter, butifos detallari holat, vaziyatni kuchaytiradi, fojialikning asl sababiga aniqlik kiritadi. Yozuvchi bu bilan cheklanib qolmaydi. Be-shikdagi bitiklar orqali yanada oydinlashtiradi. Adib bejizga "Beshikdagi bitiklar" demaydi. Beshik ramziy ma'noga ega. U - hayot ramzi, inson umri ramzi, u yashagan, istiqomat qilgan muhitning ramzi. Maya bitiklarda nima deyilgan. "Dunyoga kelib nima ko‘rdim? - Beshik ko‘rdim... - Dunyo ko‘rib neni ko‘rdim? - G‘o‘za ko‘rdim, paxta ko‘rdim. Kun ko‘rdim - g‘o‘za ko‘rdim. Tun ko‘rdim - beshik ko‘rdim. Beshik mozorim bo‘ldi, dala mozoristonim bo‘ldi". Bu iztirob tufayli zardobga to‘lgan qalb nidosi - butun hayotining kundaligidir.

Yolg‘onchilik asosiga qurilgan jamiyatning butun faoliyatida - yaxshilik yo‘lidagiga ham, yomonlik yo‘lidagiga ham yolg‘on aralashadi. Adib bu haqiqatni juda ustalik bilan aks etgiradi. Dehqonqulga mash'al brigadir sifatida kinoga olish uchun kinochilar kelishi xabarini berishadi. Dehqonqul mehmonlarning izzatini joyiga qo‘yish uchun bozorga tushadi. Meva-cheva oladi. Uyga kelganda, bolalari anor bering, pomidor bering (xurmoni pomidor deyishadi), deb atrofni o‘rab olishadi. Dehqonqul barchasini urushib, turtib, olib kelgan mayda pistasidan berib daf qiladi-yu, olib kelgan narsalarini oshxonaga qo‘yib, qulflab qo‘yadi. Lekin

o'g'li Nodir oynadan tushib, ikkita xurmoni olib qochadi. Dehqonqul quvib yetib olib, xurmoni tortib oladi va urib og'zi-burnini qon qiladi. Bu voqeani o'qigan kishining badani titrab ketadi va Dehqonqulning odamiylik sha'niga la'nat o'qiydi, bu bilan to'g'ri qiladi. Lekin yozuvchining niyati faqat bu bilan cheklanmaydi. Chunki badiiy asar voqyeli hayotdagi shunchaki jo'n voqyelik emas. Ma'lum maqsadga bo'ysundirilgan, zamirida ma'lum g'oya yotgan voqeadir. Buni turmush og'irligidan deb bilish noto'g'ridir.

Asarlarda faqat odamlarning turmushining og'irligini tasvirlash orqali jamiyatni qoralash yo'lidan bormasdan, shunday ekanligining asl mohiyatini ochib berish borasida tuzumning asl qiyofasi inkishof qilinsa, ijtimoiy salmog'i oshib, bugungi kun uchun ham ahamiyatga ega bo'lardi. Shulardan bittasi yolg'onga orqa qilish orqali jamiyatning afzalligini ko'rsatishdir. Yuqorida aytganimizdek, yolg'on soxta farovonlikni ko'rsatishda qanchalik unumli xizmat qilsa, yo'q jinoyatni yuzaga keltirishda shunchalik xizmat qiladi.

Dehqonqulni kino qilishganda, "uning hovlisiga Norboy chavandoz otini olib kelib bog'lab ketib, Chori magazin mudiri "Volga" mashinasini qo'yib ketib, badavlat xonadonga aylantirishgan bo'lsa, oradan ko'p o'tmay xuddi shunday yolg'on tufayli, brigadirlikni nora evaziga sotib olgan va paxta so-tib boyigan jinoyatchi sifatida sakkiz yilga kesiladi". Bu boradagi ko'p voqealar, so'roq qilish munosabati bilan aytilgan hodisalar, inson jismiga azob berish, xo'rlash, sha'nini bulg'ash o'rinlari haqiqiy insoniy fojidadir.

Romanda hamma e'tibor bermaydigan, hamma anglab ololmaydigan juda katta falsafiy haqiqat ifodalangan. Bu ham bo'lsa, zamon, muhit o'zgargan sayin, odamlardagi g'urur, jo'mardlik xususiyatlarini pasayib, hamiyatsizlikni kuchayishi, bo'ysinuvchanlikning ortishi. Dehqonqulning bobosi Jamoliddin, otasi Ahrablar - tamom boshqa odamlar. Ular yot odamlarga bo'yin egmay, bo'ysunmay foniy duyoni tark etishdi. Dehqonqul hamma narsaga bo'ysundi, ya'ni ijtimoylashdi. Bu katta insoniy fojidadir. Undan ko'ra, onasi Bolxin terimchi o'z qiyofasini yo'qotmagan. Chunki u - ikkinchi davr odami. Dehqonqul selni ko'kragi bilan to'sib qolmoqchi bo'lib, o'zi bir o'limdan qolganda, o'g'li ikki dunyoda ham

ayta olmaydigan gapni aytadi: "Ha, paxtalaringga qiyomat kelsin-a, paxtalaringga qiyomatgina kelsin-a! Men paxta deb nima bo'ldim? Bir belangi bo'ldim! Ularam o'ttiz so'm pensiya!"(92-bet). Bu kechagi paxtakorning botiniy nidosidir.

Shunday qilib, romanda xalqning mustaqillikka erishganga qadar boshidan kechirgan bir asrdan ziyod davrdagi mashaqqatli hayoti yaqqol tasvirlab berilgan. Asarda xalqimizga xos, xususan, vatanparvarlik, halollik, yerga muhabbat, adolatga tashnalik, bosqinchilarga nafrat va kelajakka ishonch fazilatlar ustalik bilan haqqoniy ifodalangan.

"Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida mustaqillik arafasidagi parokandalik, e'tiqodsizlik, surbetlik o'z ifodasipi topadi. Yozuvchi mazkur romanida ham o'z uslubiga sodiq qolib, voqealarni xikoya qilmaydi, uni bor ko'rinishi bilan tasvirlaydi. O'zidan hech narsa qo'shmaydi, unga munosabat bildirmaydi. Barcha qahramonlari zimmasiga yuklaydi. Ularning xatti-harakati, o'ylash tarzi, atrof-muhit va odamlarga munosabati — hamma-hammasi sof o'zbekona. Vaziyatni kuchaytirish, uni dramatik holga olib kelish, qahramonlarining o'ziga xosligini ko'rsatish, shuningdek, qalb dialektikasini ochish, iroda kuchini ko'rsatish uchun qo'llanilgan detallar ham sof, milliy. Shundan qahramonlari kishi ko'z o'ngida naqshlanib qoladi va hayotning fojiviy mohiyati oydinlashadi.

Romanning bosh qahramoni - Botir firqa. Asar shu odamning faoliyatidan boshlanadi. U tumandan kelib, kolxoz idorasi tomiga chiqib, qoravulga odamlarni yig'ishini aytadi¹². Odamlar narvon poyig'a yig'ilishgach, tomdan tushib, viqor bilan ularga: "Bir so'z bilan aytsak, men shu kundan boshlab Botir firqa bo'ldim! Ayni vaqtda, qishloq sho'rosini raisida bo'ldim! - Kimda-kim meni Botir firqa demas ekan, o'zidan ko'rsin!"(6-7-betlar) - deydi. Keyinchalik u hatto firqa demaganlarni moddiy jazolaydi. Botirning tutgan ishi bitta o'ziga xos bo'lmaganligi uchun o'sha davr manzarasi yaqqol nomayon qiladi. To'g'rirog'i, adib Botir firqa faoliyatida, uning nigohi orqali sotsializm deb atalmish butun jamiyatning tadrijini chizib beradi.

¹² Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. -T.: Yangi nashr, 2010. –B. 109.

30-yillardagi ocharchilik haqida ko‘p eshitganmiz va o‘qiganmiz. Lekin romandagi och bolasining nobud bo‘lmasligi uchun kimningdir qo‘lga topshirish niyatida yo‘lga chiqqan onaning ko‘ringan kimsaga "Mana shu qizaloqni olib keting", - deb qilgan iltijosiga hech kim quloq osmasligi, bolaning "non" deb qilgan xarxashasiga ilojini qilolmagan opaning nima qilishini bilmay, beixtiyor: "Uchir, bozori kasod! Sidirga o‘tir, bozori kasod, sidirga o‘tir", — deb koyishlarini o‘qib, kishi "dod" deb yuborgisi keladi. Chunki bu holatda nafaqat ocharchilik, balki jamiyatdagi adolatsizlik ham o‘z ifodasini topgan. Bu zor qaqshagan ayol Mirzaxo‘jaboyning bevasi Zaynab edi. Bu manzara sovet hukumati paytida o‘z aql idroki, tadbirkorligi, ishchanligi tufayli boyigan, o‘ziga to‘q bo‘lgan odamlar boshiga tushgan savdoning hosilasidir.

Ocharchilik tufayli ommaviy o‘lim boshlandi. Botir firqa bu holning chorasini topish uchun yuqoriga murojaat qildi. Ular yordam berishga va‘da berishdi. “Haqiqatan ham, uchta NKVD xodimi polutorki minib yordamga keldi. Ular faollarga qarata: "Sizlar qanchalik ko‘p yordam bersangiz, biz ocharchilikni shunchalik tez tugatamiz. Biz bu borada yetarli tajribaga egamiz, biz juda qisqa muddat ichida Ukrainada ocharchilikka nuqta qo‘yib keldik!" — deydi”¹³. Bu gapdan so‘ng kishining ko‘ngli sal yorishganday bo‘ladi. Lekin saldan keyin ularning tutgan ishlarini ko‘rib, yo, alhazar, deb yoqa ushlaysiz. Bu xodimlar o‘rjar, soy-qirlarni kezib, qishloq chekkasidagi hovuzni tanlashdi va o‘z polutorkasida ko‘chadagi, uylardagi o‘liklarni, hatto ochlikdan sulayib qolganlarni olib kelib hovuzga tashlay boshlashdi. Ularning shunday qilayotganini Botir firqa navbatdagi "o‘likni" tanib qolganligidan keyin bildi. U Mirzaxo‘jaboyning bevasi Zaynab edi. Hovuzga tushib qarasa, u tirik, bolasi ham o‘lmagan edi. NKVD xodimlari bilan shunday gap kechadi: "Ammo-lekin... tirik-da, tirik! Ana bag‘ridagi bolasi-da tirik!... Sho‘ro hukumatiga ishchi kuchi kerak, o‘rtoq komandir, ular hali ish beradi.

¹³ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. -T.: Yangi nashr, 2010. –B. 118.

- Tushunaman, o'rtiq rais, tushunaman. Ammo ular bari-bir... o'ladi-da, o'ladi!"¹⁴.

Ularning Ukrainada tutgan ishlari bundan-da battar. Mazkur xodimlari- ning nazarida, bu o'lganlar - gunoxkorlar. Chuyki "Ular... sovet hukumatiga qarshi ochdan o'lganlar!" Bu gapni o'qib kulishingni ham, yig'lashingni ham bilmaysiz. Lekin haqiqatdan ko'z yumolmaymiz. Chunki axloqsizlar ilgari surgan siyosat shunday edi. Romanda bu narsa oydinlashadi. Botir firqa "o'liklar"ni hovuzga sarjindek taxlashiga qarshi. "Axir, ular - odam", — deb sal norozilik bildirgan edi, komandirning: "O'rtiq rais, bu haqida buyruq bor, buyruq!.. Sovet hukumatining buyrug'i! Sovet hukumatining hohish-irodasi! Yoki sovet hukumatidan norozimisiz", - deb ovozi ko'targan edi, rais seskanib ketadi. Shosha-pisha "Unday demang, unday demang... — deya kalovlandi. - Axir, men... firqaman, firqa!

—Firqa bo'lsangiz, nega ikkilanasiz? Botir firqa qaddini rostlab, boshini tik tutib... "Yashasin sho'ro hukumati! Sho'ro hukumatiga shon-sharaflar bo'lsin!"— dedi tantanalik bilan". Bu hol rahbar odamlarimizning haqiqiy qiyofasi ko'zguda aks etganidir. Ha, u davrda shunday qilinmasa kun ko'rish qiyin edi. Romanning shu o'rinlari o'qilar ekan, mustaqillikning qadri namoyon bo'ladi.

Insonni o'zini tutolmaydigan holatga olib keladigan narsa uning tuyg'ularining toptalishi va adolatsizlik qilinishidir. Sotsializm dunyosida bu odatdagi hol edi. Romanda bu haqiqat nihoyatda hayotiy yoritilgan. Oblast gazetasi xodimi, iste'dodli jurnalist, shoir Mardiev redaksiya topshirig'i bilan komandirovkaga borib, ob-havo yomonlashgani tufayli samolyot uchmay, vaqtida kelolmaydi. Redaksiyadagilarning barchasi paxtada ekanligidan, o'zining ushlanib qolganligi xususida obkom sekretarini eng katta boshliq sanab, unga telegramma jo'natadi. Shu narsani katta gunoh deb hisoblashib, jamoat sudida bu masala ko'riladi-yu, u har qancha kechirim so'rasa ham, quloq solishmay "Ishdan haydalsin!" — deb qaror qilishadi. Bu borada yozuvchi yozadi: "Endi, Mardiev sud ahliga qaradi. Bejo-bejo qaradi. Endi, chaparastalab, chaparastalab so'kdi: —Unda,

¹⁴ Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. –Т.: Шарк, 2001. –Б.19.

sen chinovniklarni!.. Chinovniklar to'nka! Chinovniklar baran! Chipovniklar cho'chqa! Tfu, chinovniklar, tfu"¹⁵. Bu gapni jamoat sudi obkom sekretari Rajabovga yetkazgani uchun shaxsan uning buyrug'i bilan ruhiy-asab kasalxonasiga yotqaziladi.

Ma'lumki, hayotda har bir narsaning hisob-kitobi bor. "Qilmish-qidirmish",— deb bekorga aytilmaydi. Rajabov arzimas narsa bilan, ya'ni bir oddiy muxbir o'ziga teng ko'rib murojaat qilgani hamiyatiga tegib, uni jinniga chiqargan bo'lsa, keyinchalik uning o'zi rosmana jinni bo'ldi va Mardiev yotgan joyga bordi. Yozuvchi bu voqea munosabati bilan ko'plab tuyg'ulari aldangan insonlar qismatini yoritib beradi.

E'tiqodli odamlar o'z qiyofasiga ega bo'ladi. Botir firqa bilan Rajabov ana shunday o'z qiyofasiga ega odamlar. Ular kommunistik partiyaga juda katta e'tiqod qo'yishgan. Chunki istaymizmi, yo'qmi, partiya ular xayotida, shuningdek, odamlar turmushida o'zgarishlar yasagan. Taraqqiyotning har jihatdan tub asosi sanalgan. Shundan e'tiqodiga sadoqatini, insoniy-ligini belgilovchi omil sifatida qo'llab-quvvatlash lozim. Biroq kommunistik partiyaning yurgizgan asl siyosatining tub mohiyatini anglab yetmasliklari ularning fojiasidir. Yozuvchi mazkur obrazlar orqali xuddi shu narsani inkishof qilishi bilan bugungi avlodning e'tiqodsizligiga qarama-qarshi qo'yadi. Bunday bo'lishning asoslari bor. Yoshlar kommunistik partiya siyosati, u qabul qilgan qarorlar haqiqiy hayot bilan uyg'unligi yo'qligini, a'moli hayotiy mantiqqa zidligini, amalda qo'llash teskari natija berishini anglab yetishgan. Shundan ularning mazkur partiya e'tiqodlari sust va zaifdir.

Adib romanning nomiga ham o'zining falsafiy g'oyasini singdirgan. Asarning bir o'rnida Botir firqa shunday deydi: "...Or-nomussizga el-yurt takdirini topshirib bo'ladimi? Yuz-g'urursiz odamga el-yurt ixtiyorini berib bo'ladimi?"¹⁶.

Mustaqillik arafasida hayot o'z mehvaridan chiqib, barcha narsa aralash-quralash bo'lib ketdi. Eng fojiali tomoni insoniy mehr-oqibat, qadr-qimmat

¹⁵ Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. —Т.: Шарқ, 2001. —Б.42.

¹⁶ Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. —Т.: Шарқ, 2001. —Б.129.

susaydi, inson qadrsizlandi. Sotsializm davrida insonning o'zi emas, mehnati qadrlangan bo'lsa, endi uning daromadiga qarab kimligi belgilandi. Eng achinarlisi, halol mehnat qilganlar, kechagi jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shganlar, o'z e'tiqodiga sobit insonlar hech kim bo'lmay qoldi. Tirikligida shunday qadrsiz bo'lgan insonning o'ligiga bo'ladigan munosabatdan cho'chish tuyg'usi ham bu dunyoda o'lmaslikka da'vatdir. Bu uning ikkinchi ma'nosidir. Uning yana uchinchi ma'nosi ham bor. Istiqloldan so'ng yurtning jamoli o'zgardi, ko'p yillardan beri ma'naviy va ruhiy ezilgan xalqning qaddi tiklandi. Uning kelajagi porloq. Demak, shunday dunyoga muyassar bo'lganda o'lib bo'ladimi?

Roman juda katta falsafiy umumlashma va ramziylik bilan nihoya topadi. Bir kuni hokimiyatdan qo'ng'iroq qilishdi. Hokimiyat oldidan Bugok ipak yo'li o'tishini, shundan uning oldidagi chinorlarni olib tashlash uchun oqsoqollarning oq fotihasi zarurligini aytishadi. Botir firqa ordenlarini taqib boradi. Bu borada yozuvchi yozadi: "Botir firqaning joni achidi. Botir firqaning tani kuydi. Botir firqaning tani-joni... shodlandi.

- O'rtoq Rashidov... deya entikdi. - Sharof Rashidovich biz ekkan chinorlar... Buyuk ipak yo'li bo'ldi. Buyuk ipak yo'li!... biz yaratgan bog'lar... Buyuk ipak yo'li bo'ldi. Buyuk ipak yo'li!" Bu o'rinda juda katta haqiqat ochib berilyapti. Bu ham bo'lsa, har qanday yangilik, har qanday taraqqiyot o'z-o'zidap paydo bo'lmay, u eskining zaminida yuzaga keladi. Shundan o'tmishga hadeb tosh otaberish, u qadar mantiqli emas. Shuningdek, bizda yangilik ko'pincha hayotda o'z qadrini yo'qotmagan, yashashga haqli bo'lgan narsalarni buzish evaziga bo'ladiki, bu narsani ham oqlab bo'lmaydi. Chinorlarning yiqitilishi shunga ishoradir. Shuningdek, halollik, to'g'rilik, diyonatli yo'l ulug' yo'ldir. Barcha ezgu ishlarga shu yo'l olib boradi. Chunki bu yo'ldan yuruvchilar imonli shaxslardir. Botir firqa shunday shaxsdir. Lekin asarning so'nggi boblarida o'ta intellektuallashish o'zini oqlamagan. Qahramon mantig'iga mos emas. Ma'lumki, Botir firqa o'zi chalasavod. Bor-yo'g'i partiya kurslarini bitirgan. Shunday odamni "XVI asr boshlarida Moskvada buyuk knyaz Vasiliy III Pekov oqsoqoli Filofeydan bir qator murojaatnomalar oldi" haqidagi ma'lumotlar, undan keyingi fikrlar, Ivan

Grozniy xususidagi haqiqatlar, ayniqsa, uncha-muncha tibbiyot olimi bilmaydigan "suitsid" haqidagi mulohazalari kishini ishontirmaydi. Bu o‘rinlarda qahramon yozuvchi g‘oyasini, fikrini tashuvchi, ifodalovchi ruporga-jarchiga aylanib qolgan.

Shukur Xolmirzaevning "Dinozavr" romani markazida ham inson va davr muammosi yotadi. Asar 1996 yil "Yoshlik" jurnalining 2 — 4-sonlarida bosilgan. To‘g‘risini e‘tirof etganda, bozor iqtisodiga o‘tish davridagi qiyinchilik va kamchiliklar, muammoalar ko‘pchilikni gangitib qo‘ydi. Kimlardir uning mohiyatini to‘g‘ri anglab, Vatan taqdiri, yurt kelajagi haqida kuyib-pishayotgan bir vaqtda, boshqalar faqat o‘z manfaati, ya‘ni "qorin dardi"ga berildi. Shukur Xolmirzaev bu masalada befarq bo‘lmadi. U o‘zining ushbu romanida mazkur masalaga kishi diqqatini tortadi¹⁷.

Hayot haqiqatidan ma'lumki, vijdoni uyg‘oq, qalbi pok, diyonatli shaxslarning foniy dunyoda yashashi qiyin kechadi. Chunki ular har bir adolatsizlikka, odamlarning insoniylikka zid xatti-harakatlariga befarq qaray olmaydi. Ularga nisbatan o‘z e‘tirozini bildiradi. Bunday shaxslarning aksariyati ijodkor bo‘ladi. Shunday haqiqiy ijodkor xalqning vijdoni sanaladi. Mazkur romanning bosh qahramoni — ijodkor Mahkam. Totalitar tuzumning abadiyligi-yu, mustaqillikning bir ro‘yo ekanligiga ishongan minglab odamlar singari Mahkam ham bu haqida o‘ylab ko‘rmagan edi. Endi u shunday bir holatdagi, aqli-shuuri idrok etadi, fahmlaydi, boshi va qo‘li harakatda, ammo oyog‘i go‘yo bir botqoqqa botib kolgan. U fikran undan chiqib olishga intiladi. Yozuvchi mana shu tariqa Mahkamning botiniy o‘y-xayollari, ruhiy iztiroblari orqali zamon ziddiyatlarini yoritib boradi.

Mahkam ba‘zan og‘ir tushkunlikka tushib ketar, go‘yo bu holatdan chiqishni bilmagani holda, uning chek-chegarisini ham bilmaydi. Shunday og‘ir vaziyatda o‘zini "kuchsizlar" qatoriga qo‘shadi. Bu borada yozuvchi yozadi: "...Mustaqillik davri boshlandi-yu, dunyoqarash ham, fikrlar xam o‘zgardi... Mahkam u hayot tarziga moslasha olmay va buning tub sabablarini bilmay, tushunishga aqli yetmay iztirob chekardi.

¹⁷ X. Каримов. Шукур Холмирзаев. - Т.: "Қатортол", "Камолот", 1999. –Б.94.

Shu bois o'zini "kuchsiz odamlar" toifasigada qo'shar, bu hol unga tasalli berar edi".

Lekin hayotga moslashish ham har xil bo'ladi, bir xillar ko'r-ko'rona yondashadi. Ikkinchi bir shaxslar aql-zakovat, uddaburonlik bilan zamon qiyinchiliklarini yengishga intiladi, undan ustun keladi. Bular g'ayratli, shijoatli shaxslardir. Jamoliddin shunday insonlar sirasiga kiradi. U ertangi kunga umid ko'zi bilan qaraydi. Bu xaqida u shunday deydi: "...Shunday kunlar keladi. Mening uch-turt operatsiyam bor. Keyin kelishib bitta ish qilamiz... Bizning buyuk bobolarimiz bor. Milliy biznesmenlar yetishvotti. O'zbekistonni 4 — 5 yildan keyin ko'rasiz. O'rta Sharqda mash'al bo'lib ketadi. O, bizdagi boylik, xalqimizning mexnatkashligi..." Yozuvchi Jamoliddinni yosh biznesmen deb ataydi. Aslida, u ijodkor-biznesmen. Chunki u - pyuir, she'rlar to'plami ham chiqqan. Jamoliddin — yozuvchi idealidagi obrazlardan biri. Uning qanday insonligi kelajakka umidi, orzusi Mahkamga aytgan gaplarida o'z ifodasini topadi: "...Hali biznesmenlarning ham ko'zi to'yadi. Ha-ha, hozircha ko'pining ko'zi och.... hali to'yadi, to'yinadi ular... Keyin bilasizmi... Keyin o'qishgayam, xo'sh, ma'naviyatga ham qiziqqa boshlaydilar. Chunki biznesmen - madaniyatli odamlar. Axir, ular jamiyatning bulbullari, gullari hisoblanadigan yozuvchilar, ijodkorlar bilan aloqa qilmasa, birga turmasa... qanaqasiga madaniyatli odam bo'ladi... O'zimizning Toshkentda qanaqa boylar o'tmagan! Maktablar ochishgan, o'zlari darsliklar yozishgan. Masalan, Munavvar qori, Ubaydulla xo'ja... E-hye!" Bu fikrda bugungi kun manzarasi yaqqol o'z ifodasini topish bilan birga, ma'naviyatga da'vat ham borki, bu, o'z navbatida, yozuvchining maqsadini ham ifodalaydi. Jamoliddinning fikri tiniq, ma'naviyati yuksak bo'lgani uchun kishi kayfiyatini ham tez ilg'aydi. U Mahkamning kayfiyati mohiyatini anglab yetadi. U o'zining nekbin fikr va mulohazalari bilan Mahkamni ham ijod qilish kayfiyatiga qaytaradi, ruhini tetiklashtiradi.

Yozuvchi davr ziddiyatini yangi avlod ruhiyatiga o'tkazgan ta'sirini ko'rsatish borasida inson kamolotida muhitning roli kattaligiga kishi diqqatini tortadi¹⁸. Bu

¹⁸ X. Каримов. Инсон ва давр. - Т.: Фан, 1992. —Б.43.

hol Mahkamning o'g'li Sobit obrazi orqali inkishof qilinadi. Oilada Sobit ko'proq onasi ta'sirida bo'lsa-da, otasining imonli, vijdonli ekanligini yosh bo'lishiga qaramay qalban his qiladi va otasiga ergashadi. Oiladagi kelishmovchilik, soatlab cho'ziladigan dahanaki jang, onasining xaqoratomuz so'zlari, otasining iztirobga tushishlarining sababi unga oydinlasha boshlaydi. U shunday xulosaga keladi, ya'ni buning ildizi ro'zg'ordagi yetishmovchilikda. Chunki ilgari hamma narsa yetib turganda, uyda ham osoyishtalik hukm surardi. Ota-onasi ham bunchalik asabiy emas edi. Otasining gaplaridan, uning Abzal aka, Toirov, Jamoliddin, Quyunlar bilan qilgan suhbatlaridan haqiqatni anglay boshlaydi. Ya'ni otasining ruhiy iztiroblari faqat oila tashvishi, moddiy qiyinchiliklarda emas, balki onasining, shuningdek, atrofdagi odamlarning ma'naviy qashshoqlashib ketayotganida ekanini. Sobit obrazining ibratli tomoni ham ana shunda.

Ma'naviy barkamol insongina turmushning ikir-chikirlaridan ustun kelishi, turmush qiyinchiliklarini yengishi mumkin. Agar uning aksi bo'lsa, zamon ummoni oqimiga ko'milib, o'zini va yaqinlarini ham barbod qilishi muqarardir. Romanda bu hayotiy haqiqat Shahlo, Abzal aka, Toirovlar obrazi orqali kishi ongiga singdiriladi.

Qahramonni jamiyat ma'naviy iqlimida qanday o'zgarishlar ro'y berayotgani emas, balki bozorda qanday o'zgarishlar bo'layotgani, narx-navoning qay darajada ekanligi ko'proq qiziqtiradi. Shahloning bunchalik tez o'zgargani Mahkamni hayron qoldiradi. U Shahlodan avvalgi fazilatlarini qidirar, undan nihoyatda oz qolganidan afsuslanadi. Lekin bir haqiqatni anglab yetadi. Bu ham bo'lsa, Shahlodagi avvalgi insoniy fazilatning ildizi botiniy emas, zohiriy ekanligini.

Abzal aka — asli, shoir. Ko'proq bolalarga atab she'rlar yozgan. Ammo bugunga kelib butun o'tmishini qoralab, taqvador insonga aylanadi. Mustaqillikka erishish tufayli yetmish yillik tuzumning yemirilishi Abzal akani gangitib qo'ydi. Chunki uning ma'naviyati, e'tiqodi va dunyoqarashi zaif edi. Shundan Abzal aka shamol qay tomonga essa, u o'sha yoqqa og'adi, o'zgaralar fikri bilan ish yuritadi. U na dunyoviy ilmni, na diniy ilmni chuqur o'zlashtirmagani uchun arosatda qolgan.

Davrga qarab o‘z qiyofasini namoyon qiladigan obrazdan yana biri Toirovdir. U — totalitar tuzumga, uning partiyasiga ancha-muncha xizmat qilgan shaxs. Kompartiya gullab-yashnagan yillarda rahbarlik kurslarida o‘tirgan bu shaxs, partiya inqiroziga uchragach, hech ikkilanmay, uyalmay yangi hayotga moslashib oladi. Bir payt o‘z yo‘li qolib, o‘zga qadamini sanab yurgan xalqning asl farzandlari noxaq o‘ldirilganda loqayd tomoshabin bo‘lgan bu shaxs o‘z qadrdon do‘sti, ya'ni Mahkamning otasini ham sotgan. Bu haqida yozuvchi yozadi: "...Chetdan kuzatgan odam shunday o‘ylashi mumkin edi: "Bu qariya komil musulmon ekan. Shunday ovro‘pacha libosda bo‘la turib, tilidan kalimai shahodat tushmas, ulug‘ligi shunda"¹⁹.

Qaysiki jamiyat xalqning ma'naviyati yuksak, o‘sha jamiyatning poydevori ham mustahkam bo‘ladi. Bunday fazilatga ega davlatni hech qanday tashqi va ichki kuchlar yenga olmaydi, ma'naviyat insioniylikning oydin yo‘li, jaholatga qarshi tiklangan Iskandar devoridir. Roman qahramonlari faoliyatida ana shunday g‘oya yotadi. Romanning ahamiyati syujet zamirida yotgan ana shu falsafiy haqiqatdir.

1.2. Mustaqillik yillarida tarix va tarixiy shaxslarga yangicha qarash

Istiqlol davri voqealarini to‘g‘ri anglash va to‘g‘ri yoritish, tarixiy shaxslarni esa davr siyosati, mafkurasi nuqtai nazaridan emas, hayotiy haqiqat hamda tarixiy jihatdan haqqoniy inkishof qilish imkonini beradi. Ma'lumki, ezgulik, xalq manfaatlari yo‘lida qilingan ishning yuziga har qancha qora chiziq tortilmasin, yo‘q qilish yo‘lida har qancha urinishlar bo‘lmasin, u yo‘qolmaydi. Haqiqat ummoni yuziga po‘kak kabi qalqib chiqaberadi. Bu fikrning to‘g‘riligiga keyingi paytda yuzaga kelgan tarixiy romanlar yaqqol misol bo‘ladi.

Mustaqillik davrining o'tgan yigirma uch yili orasida o'zbek adabiyotida ikki yuzdan ziyod roman yaratildi. Bu romanlarning aksariyatida yangicha talqin va tahlil, jonli obraz va yorqin tasvirlar ko'zga tashlanib turadi. Romanchilikda

¹⁹ У. Норматов. Умидбахш тамойиллар. -Т.: Маънавият, 2000. –Б.52.

haqqoniylikka va badiiy mahoratga e'tibor kuchaydi. Shuningdek, janr turlarida ham muayyan sifat o'zgarishlari ro'y berdi.

Bu yangi davr romanchiligi haqida gap borar ekan, avvalo, uning mavzu doirasi kengaygani, haqqoniylik chuqurlasha borganini alohida qayd etish lozim. Bu davrda xalqning uzoq va yaqin o'tmishi haqida «Movarounnahr», «Turon malikasi» (Mirmuhsin), «Ona lochin vidosi» (P. Qodirov), «Ibn Sino», «Beruniy» (Maqsud Qoriyev), «Amir Temur» (Bo'riboy Ahmedov), «Otamdan qolgan dalalar», «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» (Tog'ay Murod), «Sarbadorlar», «Ulug' saltanat» (M.Ali), «Boburiynoma» (Xayriddin Sulton), «Imom al-Buxoriy» (D. Fayziy), «Turkistonlik avliyo», «Yassaviyning so'nggi safari» (S. Siyoyev), «Mahmud Tarobiy», «Fano dashtidagi qush» (Asad Dilmurod), «Navqiron bek» (Tohir Jo'lmatov), «Mehribonim, qaydasan» (Xayriddin Begmat) kabi romanlar yaratildi. Bu asarlarning ko'pchiligi tarixiy-biografik material asosida yozilgan. Shu sababli ularda tarixiy-biografik janr xususiyatlari ochiq ko'rinadi. Zero, bu asarlarda Amir Temur, Bobur, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Imom al-Buxoriy, Xo'ja Ahrori Vali singari mashhur tarixiy shaxslar obrazi markaziy o'rinda turadi va ular realistik bo'yoqlarda yangicha talqin etiladi.

Qaysiki, badiiy asarda insoniy kechinmalar jarayoni, iztiroblari mohiyati, o'zining falsafiy talqinini topsa, o'sha asar har qanday jamiyat o'zgarishlarida ham umrini tugatmay yashab qoladi. Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" nomli romani ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi va ma'naviy olamini boyitish orqali o'z hayot yo'lini to'g'ri belgilashga imkon tug'diradi. Bu narsa esa, o'z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga demokratiyaning yanada kuchayishiga asos bo'ladi. Chunki xalqi komil bo'lgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi. Demak, roman kamolotga xizmat qiladi.

Ma'lumki, temuriyzodalarning ko'pi jo'mard shaxslar bo'lib yetishgan. Bunda Bibixonimning xizmati kattaligi tarixdan ma'lum. Lekin bunday xizmatni Saroy Mulk Xonimdan so'ng Gavharshod begim zimmasiga tushganligini jamoatchilik bilmadi. Qaytaga bu borada noxush fikrlar yurardi. Badiiy asarlardagi talqinlarni

o‘qigan kitobxon, iahotki, Shohruh Mirzodek shaxsning zavjasi, Ulug‘bekdek allomaning onasi shunday bo‘lsa, deb hayron bo‘lardi. Pirmqul Qodirov mazkur asari bilan oldindagi shubhalarii tarqatib yuboradi. Yozuvchi yozadi: "Rahmatlik Bibixonim "Ona lochin" deb ulug‘lar edilar,, "Avlodlarimni lochinday parvoz etadigan qilib tarbiyalang!"²⁰ - derdilar.

— Ammo siz ham Bibixonimning salaflaridansiz, begim. Bugungi temuriylar xonadonida siz kayvoni ona bo‘dib qoldingiz. Polopon lochinlarimizni endi siz uchirma qilmog‘ingiz kerak. Ularni amalparast beku a'yonlarning qutqularidan omon saqlay olmasak, keyin pushaymon bo‘lurmiz!

— Siz haqsiz, hazratim! — deb Gavharshod begim o‘rnidan turib Shohruhga ta'zim qildi.

Shu kundan etiboran umidlik shahzodalar Gavharshod begim tarbiyasiga berildi"²¹.

Zukkolikning belgisi bilimdon, zehni o‘tkirlik bilangina belgilanmaydi, balki fikr nuri bilan inson ziynati orqali uning niyatini o‘qib olish, yuz berishi mumkin bo‘lgan voqeani oldindan anglab olish ila namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat Bibixonimda borligi ma'lum edi, mazkur asar orqali Gavharshod begim ham shunday xususiyatga ega ayol bo‘lganligi ayon bo‘ladi. Gavharshod begim o‘g‘illari Ulug‘bek va Boysunqur Mirzo farzandlari: Abdulatif hamda Alouddavlani tarbiyasiga oladi. Alouddavla keyinchalik momosining tarbiyasi va harakati tufayli Shohruh Mirzo saroyda devonboshi - vazir darajasiga ko‘tariladi.

Bu holat atrofdagi qora bulutlarni tarqata olmay, qalbida baxillik, mansabparastlik urug‘ining unishiga imkon tug‘dirgan Abdulatifning niyatini oshkora namoyon etishga olib keldi. Qilichbozlik mashqini o‘zini tiya olmay rostakam jangga aylantirdi. Oqibatda Alouddavlaning barmog‘ini qilich kesib ketadi. Bu qilmishi uchun Gavharshod begimning bergan dashnomidai arazlagan Abdulatif Junayd Bo‘g‘a kabi sirdosh begi bilan Samarqandga ketib qoladi. Bu voqeadan so‘ng Gavharshod begim Shohruh Mirzoga shunday deydi: "Farzand

²⁰ Қодиров П. Она лочин нидоси. -Т.: 2001. –Б.108.

²¹ Қодиров П. Она лочин нидоси. -Т.: 2001. –Б.109.

mehri yoshga qaramas ekan, hazratim. Men to'ng'ich o'g'limiz Ulug'bekni juda sog'inib yuribmen. Ammo nevarimiz Abdulatifning fe'li yomon. Halitdan toju taxtga ixlosmand.

—Men ham buni sezib yuribmen. Ba'zi Samarqand beklari Ulug'bekni madrasada mudarrislik qilib, ilmi nujunga berilib ketganidan norozi. Ular Abdulatifni otasidap ko'ra podsholikka munosibroq deb bilar emishlar. Maxfiy axborotlardan shuni bilganim uchun Ulug'bek Mirzoning tinchini o'ylab, Abdulatifni Hirotidan ketkazmay yurgan edim.

- Rost, Abdulatif Ulug'bek uchun ham xatarli. Ruksat bering, men borib uni qaytarib kelay! — dedi Gavharshod begim²².

Bundan ko'rinadiki, Abdulatifning tiynatida taxtparastlik balosi yoshligidan yopishgan, buni Shohruh Mirzolar zakiy shaxslar bo'lgani uchun ilg'ashgan, uning oldini olishga intilishgan. Bu romanning "Abdulatifning ilk isyoni" bobida g'oyat ta'sirchan bir tarzda tasvirlangan²³.

Qishning chillasida oltimishdan oshgan Gavharshod begim Abdulatifni Hirotga qaytarish uchun o'tlanadi. Bundan maqsad, birinchi iavbatda, o'g'li Ulug'bekning tinchini ko'zlash bo'lsa, ikkinchidan, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan katta xavfning oldini olish edi. Bu bobda Ulug'bek shoh sifatida emas, onaga o'ta mehrlil farzand, quvvai hofizasi keng olim sifatida bo'y ko'rsatadi. U onasining kelayotganini eshitib, barcha ishlarini tashlab, Samarqanddan Amudaryo bo'yiga shoshildi. Daryodan qishda otliq o'tib bo'lmas, suvning sayoz joylari muzlagan, ahyon muzlar ko'chib, bir-biriga zarb bilan urilardi. Kemada o'tish ham xatarli, katta muzlar kemani ag'darib yuborishi mumkin edi. Shunday bo'lsa-da, Ulug'bek o'tib keladi. Onasini olib o'ng qirg'oqqa qaytganda, u yerda gilam payondoqlar tashlangan edi.

Abdulatif so'zsiz Hirotga qaytishni istamaydi. Onasi Husn Nigor begim ham yolgiz farzandini o'zidan uzoqlashtirishni hohlamaydi. Shunda Gavharshod begim o'z fikrini ochiqcha izhor etish bilan o'zining qanday shaxs ekanligini, ya'ni inson

²² Қодиров П. Она лочин нидоси. -Т.: 2001. -Б.111.

²³ Пардаева З. Ўзбек романлари поэтикаси. -Т.: 2003. -Б.47.

qalbining botiniy varaqlarini o'qish qobilyatini namoyon etadi. U Ulug'bekka shunday deydi: "Shoh o'g'lim, Abdulatifni men yoshligidan bilamen. Uning tabiatida yomon barqarorlik bor. Sizda ulug' iste'dodlarda bo'ladigan nekbinlik, mayinlik ustun edi. Ammo o'g'lingiz boshqacha..." O'g'lidagi bu xususiyatni Ulug'bek ham sezardi. U onasining gapiga javoban: " Men ham o'g'limiz Abdulatifda hovliqmalik, dovdirlikka o'xshash xislat borligini sezamen, Ilohim Halil Sulton fojiasidan Xudo bizni asrasin"²⁴, — dedi. Nadomatlar bo'lsinki, Alloh asramadi. Bunga so'zsiz insonning o'zi aybdor.

Romanni o'qir ekanmiz, kishini iztirobga soladigan voqealarning, ya'ni ota bilan bolaning, bobo bilan nevaraning bir-biriga dushman aylab, o'zaro urush chiqishiga sababkor bo'lgan holatlarning mohiyatini, bundan xalqning jabr tortishining, uning salbiy oqibatlarining ildizini anglab yetamiz va undan tegishli xulosa chiqaramiz. Buning tub sababi taxtparaslik va xushomadgo'y, o'z manfaatining ko'zlovchilar qutg'usig'a o'tishlikdir.

Amir Temur o'g'il va nevaralariga iasihat qilganda "Kurashda adovat emas, adolat yengadi", - deb nasihat qilardi. Ulug'bek xuddi shu fikrga amal etardi. Shundan unga xalq, ulamo-yu allomalar mehr qo'ygan edi. Bu hol asarda amalda isbotlanadi.

Ulug'bekdan ko'p yaxshiliklar ko'rgan Baroq o'g'lon Shohruh Mirzo suiqasd tufayli yotib qolganda Ulug'bekka qarshi bosh ko'taradi. Bu hodisa Navro'z kunlariga to'g'ri keladi. Ishongan beklari "Ertaga bayram!" deb rosa ichishib, mast bo'lishib uxlab qolishadi. "Ulug'bekning o'zi esa o'sha kecha bahorgi teng kunlik boshlanganidan foydalanib, "Ziji Ko'rag'oniy"ga zarur aniqliklar kiritish bilan band bo'lgan edi, oqibatda to'satdan bo'lgan xujumdan ikki ming odam halok bo'ladi. Bundan achchiqlangan Shohruh Mirzo Ulug'bekni taxtdan chetlashtirishga qaror qiladi. Buni eshitgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi allomalar Shohruh Mirzoga maktub yozishib, rasadxonaga taklif etishadi. U yerdagi kashfiyotni namoyish qilib, Ulug'bekning o'z o'rnida olib qolishadi.

²⁴ Қодиров П. Она лочин нидоси. -Т.: 2001. –Б.118.

Rayda isyon ko'targan nevarasi Muhammad Sultonga qarshi otlangan Shohruh Mirzo isyonni jangsiz bartaraf qildi. Ammo qish bo'yi yo'l yurib toliqqan Shohruh Mirzo me'da kasalidan vafot etdi. O'lim oldidan qo'shinga Abdulatif bosh bo'lsin dedi. Biroq qo'shindag'i Xurosondan, Balxdan kelg'an begu navkarlar samarqandliklarning itoatida bo'lishii is-tamay ajrab ketishdi. Buning ustiga, Abdulatif haddan tashqari qattiq qo'llik qila boshladi. Oqibatda Abdulatifga qarshi isyon ko'tarilishi xavfi tug'ildi. Bu isyonga momosi Gavharshodbegim ham aralashganday gumon qilib, uni xibsg'a oldi. Uzini boqib katta qilgan, buniig ustiga, azador bo'lgan momosiga nisbatai bunday yo'l tutishlik gumrohlikdir. Tasavvur qilib ko'raylik, shoh o'g'il tirik bo'lsa-da, uning o'g'li tamonidan bobosi Shohruhning tobuti bilan zax, sassiq omborxonaga qamab qo'yilsa! Lekin bu holat o'z o'rniga tushdi. Alouddavla momosini qutqarib, Abdulatifni Ixtiyoriddyn qal'asig'a qamadi, noto'g'ri tashlangan qadam qarindosh-urug' o'rtasida adovat urug'ini sochdi, ona bilan bolani ruhiy istirobga soldi. Ulug'bek shoxdan ko'ra, birinchi navbatda, ota edi. Uning insoniyligi ham ana shunda. U adovat olovini o'chirib, adolatni tiklashga intildi. Tinch yo'l bilan Abdulatifni hibsdan qutqarishga muaffaq bo'ldi, biroq adovat olo-vi o'chgani bilan butunlay so'nmagan edi, u tutab turardi. Sal shamol tursa, alanga olishi muqarrar edi.

Abdulatif hibsdan ozod bo'lgach, o'zini ovga qo'yilgap burgutday his qildi. Ikkinchi tomondan, Alouddavlaning xatti-harakati ham insoniylikdan emasdi. Pirovardida og'a-inilar o'rtasida rostmana urush boshlandi. Bu urushda Abdulatif butunlay tizgindan chiqib, otasi Ulug'bekning buyruqlarig'a bo'ysunmay, o'lka olishni, odamlarni qirishni boi;lab yubordi. Mazkur hol saltanatningtanazzulidan dalolat edi. Chunki farzandning ota-ona yuziga oyoq qo'yishi uning ruhidagi yaxshilik farishtasining ustidan shaytonning g'alabasidir.

Shayton o'z ishini qiladi. Abdulatif nihoyatda maxfiy, ya'ni otasini qatl etish xususidagi buyruqqa fatvo bsradi. Mazkur ijro esa "Ulug'bek haj yo'lida tusatdan qazo qildi", - deb elga e'lon qilindi. Bu sirni bilganlar yo'q qilingan bo'lsa-da, haqiqat oshkor bo'la boshlaydi. El orasida "Padarkush Xudoning qahriga uchrasin", degan so'zlar oralaydi. Hatto bunday so'zni Husn Nigor xonim Amir

Temur maqbarasiga ziyoratga borganda, nuroniy bir ayol ogʻzidan ham eshitadi. U bu haqida Abdulatifga ogʻiz ochganda, haqiqat oydinlashadi. Bu qabohatdan voqif boʻlgan onaning "Yo, alhazar!.." - deb tortgan iztiroblari, Abdulatifniig vosvoslik, juniylik harakatlarini oʻqigan kitobxon qabixlikkka la'nat oʻqib, yomonlik yoʻliga etak siltab, imon keltirishi shubhasizdir. Ayniqsa, adolat tantana qilib, Abdulatif munosib jazosini olishi, insoniyat uchun katta saboqdir.

Abdulatif oʻldirilgach, Abdulla Mirzo taxtga oʻtiradi. Oʻgʻlining ta'ziasiga ham kelolmagan Gavharshod begim Samarqandga keladi. Bu haqida yozuvchi shunday yozadi: "Samarqandga, Amir Temur maqbarasiga yetib borganlarida, Gavharshod begim Ulugʻbek qabrini xuddi beshik kabi quchoqlab, yelkalari silkina-silkina uzoq yigʻladi. Ulugʻbek goʻdaklik paytida begim kechalari uning beshigiga bagʻrini berib, bola emizganlari yodiga tushdi. Shundan keyingi ellik besh yillik hayot koʻz oldidan yashin tezligida oʻtdi. Lekin xayoli oʻziga kelgatsda goʻdakning iliq nafasi keladigan beshikni emas, qirralari koʻkragiga botib turgan sovuq qabr toshini quchoqlab yigʻlayotganini koʻrdi".

Bunday holatga chidash buyoqda tursin, hatto tasavvur qilish qiyin. Chunki taxtparastlik qutqusi natijasida ikki qabrda kallasi tanasidan judo qilingan jigargoʻshalarning yotishi gʻoyat iztiroblidir. Lekin Gavharshod begim hayotning bu azob-uqubat, xiyla-nayranglari ummonlari qarida koʻmilib ketmaydi. Bu ummonlardan qirgʻoqqa chiqishga kuch-qudrat topadi. Chunki Shohruh Mirzo, Ulugʻbeklardan soʻngʻ Amir Temurning "Kuch - adolatda" degan shiorini har bir temuriy zodaga anglatib turishni oʻzining burchi deb biladi. Buni amalga oshirishning birinchi, asosiy yoʻli ilm-marifat ekanligini bilgan Gavharshod begim shu narsaga katta e'tibor qaratadi. Mazkur yoʻlni qabul qilgan Abulqosim Bobur Xuroson taxtiga kelgach, Shohruh Mirzo hukmronlik qilgan davrdagi osoyishtalik yuzaga kelib, ilm-fan, marifiy-madaniy ishlar avj ola boshlaydi. Alisher va Husayn Boyqaro kabi kelajakning buyuk kishilari buyuk allomalardan ezgulik sabogʻini olishga imkon yaratiladi. Bularning barchasi Gavharshod begim rahnamoligida roʻy beradi. Romanda bunday yoʻl tutishning samarasini koʻrsatish borasida muhim falsafiy haqiqat ochib beriladi.

“Ma’rifatsiz Abusayid hokimiyatni qo‘lga kiritgach, birinchi ishi taxtga egalik haqi bor barcha temuriyzodalarni o‘ldirishdan boshladi, ikkinchi ishi Ulug‘bek yaqinlari va u davrda nufuzga ega bo‘lgan kishilarni boyligi hamda uy-joylarini tortib olish bo‘ldi. Bular safiga ilm-ma’rifatli odamlar ham kirdi. Osonlik bilan topilgan boylikka qo‘shin yollashni kuchaytirdi. Oqibatda Xurosonni ham egallaydi. Ma’lumki, Xuroson xalqi ma’rifatli shohlarning - Shohruh Mirzo, Abulqosim Bobur boshqaruviga o‘rganib qolgan edi. Bundan tashqari, bu ilm-ma’rifat homiysi, qaynotasi Amir Temurning "Kuch - adolatdadir", "Rostini aytsang, nojot topgaysen" degan e’tiqodiga bir umr amal qilgai, uni temuriyzodalar ongiga ham singdirishga intilgan Gavharshod begimning nufuzi katta edi”²⁵. Ayyor Abusayid Gavharshod begimni o‘ziga nisbatai xayrixoh qilish va bu bilan undan xalqning ixlosini qaytarishga intiladi. Va Hirot shayxulislomi Xo‘ja Taftazaniy bilan Gavharshod begim huzuriga keladi, undan ilmu ma’rifat ahliga tushuntirishni, ular Abusayidni qo‘llab-quvvatlashlarini va juma namozida nomini xutbaga qo‘shib o‘qitishga oq fotiha berishini so‘raydi. Zukko Gavharshod begim uning niyatini anglaydi. Yozuvchi uning botiniy nidosi xususida shunday yozadi: "Agar u o‘g‘liga xiyonat qilgan odam-ga xushomadlar qilib obro‘ orttirmoqchi bo‘lsa, bu bilan el-yurtning nazaridan qolmaydimi? Begim odamlarning ixlosi qaytgandan keyin, Abusayid ham uni keraksiz bir narsaday bir chetga surib tashlamaydimi", Gavharshod begim bo‘lishi muqarrar bo‘lgan voqea-holatni ichki tahlildan o‘tkazgach, shunday javob beradi: "Taqsir, uyat o‘limdan yomon deydilar! Meni el-yurt oldida uyatga qo‘ymang!" Bu bilan kechagina temuriylardan, xususan, Gavharshod begimdan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgan, bugunda Abusayidga xushomadgo‘ylik qilayotgan erkaklarning qadini bukib, ayol boshi bilan jo‘mardlik ko‘rsatadi. Abusayid so‘zini qaytarish o‘zining kafani bichish bilan barobar edi. Shu kundan boshlab Abusayid Gavharshod begimni yo‘q qilish yo‘lini qidiradi va topadi. O‘ziga qarshi fitnaga boshchilik qilgan deb, o‘ylab topilgan nayrang asosi tufayli Gavharshod begim gunohkor sifatida shoh saroyiga olinib kelinadi. U esa tap tortmasdan haqiqatni yuziga aytadi. Bu haqiqatdan o‘zini

²⁵ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. -T.: Yangi nashr, 2010. –B. 151.

yo‘qotib qo‘ygan Abusayid farishtadek oq kiyingan, ro‘za og‘izli Gavharshod begimni jallod qo‘liga topshiradi.

Ma'rifat homiysi, ezgulik targ‘ibotchisi, jahon malikasiga qarshi borishlik Abusayidning tuban ketishi va inqirozidan dalolatdir. Bu haqida muarrih Abdurazzoq Samarqandiy "Matla'yn sada'yn" kitobida: "Shunday oliyhimmat, pokiza, iffatli, ulug‘ maqsadli, adolatli, xudojo‘y momoni qatl ettirgan Abusayidning qilmishiga Parvardigor o‘zi jazo berar", - deb yozgan ekan. Haqiqatan, shunday bo‘ldi. U yurtni, taxtni xiyla-nayrang, lafzdan qaytish bilan qo‘lga kiritgan edi, o‘zi ham Amir Hasanbekning xuddi shunday qopqoniga tushdi va qatl qilindi.

Romandagi ko‘p tarixiy voqealar, taxtparaslik oqibatida odamlar boshiga tushgan sonsiz kulfat va fojialar shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Ya'ni ruhida shayton hukmron bo‘lgan odam davlat tenasiga kelsa adolat, zzzgulik o‘rnini razolat egallaydi. Bunday davlat xalqi iztirobga mahkum bo‘ladi. Xalqi iztirob chekkan davlatning esa umri qisqadir. Asarning badiiy qimmatini, insoniyat ma'naviy olami va hayotda tutgan o‘rni xuddi ana shundadir.

Ma'lumki, badiiy asarda, albatga, voqealarni hayoliy yaratish, qo‘shish, olish hodisasi bo‘ladi. Muhammad Alining "Ulug‘ saltanat" romani ham bundan mustasno emas.

Ular yozuvchi g‘oyasini ifodalashdan tashqari, tarix ruhini berish bilan voqealarni aniq manzarasini naqshlagan, zamon va makonini belgilagan, shuningdek, qahramonlari qiyofasini yorqinligini, jonliligini yuzaga keltirgan. Chunki romanda voqealar tasvirida tarixiylikdan chekinilmagan. Bu hususiyat barcha, ya'ni yetakchi obrazlar qatorida epizodik personajlar tasvirida o‘z ifodasini topgan.

Bu voqealar tarixdan bir on ham uzilmaydi, doimo davr ruhi "qurshovida" beriladi. Ma'lumki, insoniylikning muhim belgilaridan biri do‘stlikka sadoqat, o‘rni kelganda, ulardan ko‘magini ayamaslikdir. Bunday fazilatga ega bo‘lgan shaxsga ishonadi, unga sadoqat ko‘rsatadilar. Bunday inson, albatta, o‘z maqsadiga erishadi, chunki u o‘ziga tarafdorlar va ko‘makchilar orttiradi. Hayotda esa inson

hamisha bir-biriga muhtoj. Bu borada Farobiy shunday deydi: "Kishilar qandaydir hamjamiyat bo'lishga muhtojki, har biri alohida tarzda unga muhtojlik sezadi...²⁶". Amir Temur bu falsafiy haqiqatga amal qiladi. O'zi bu borada shunday deydi: "yana tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do'st ul-kim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z yovi deb biladi"²⁷. Amir Husayn Temurbek. yigitlariga atay ko'p miktorda tovon soladi. Uning yaqin do'stlari - Amir Joku barlos, Amir Sayfiddin ieko'z, Abbos Bahodir va Davlatshoh baxshilar bodbudlarini yig'ishtirib berganda ham, tovonni qoplay olmaydi. Shunda Temurbek ko'mak beradi. Bu xususida yozuvchi yozadi: "Do'stlarini muztarlikda qoldirmaslik uchun keshlik amir oltinu kumushdan iborat katta mablag' sarish-taladi, hatto chorasiz qolib, zavjasi Uljoy Turkop og'aning qimmatbaxo bilak uzuk va sirg'asini ham qo'shib yuborishga majbur bo'ldi. Amir Husayn ularni tanidi, chunki singlisiy-ga o'zi hadya qilgandi. Ammo ochko'zlik va hirs kuchliligidan qaytarib berishga ko'zi qiymadi. Yana uch ming dinor zarur edi.

Temurbek o'ylab qo'ygan so'nggi chorasini qo'lladi: sara arg'umoqlaridan o'ttiztasini ajratib, tovonga eltishlarini buyuradi"²⁸. Biroq Temurbek tovondan butkul qutuldim deb, o'g'li Jahongir Mirzo bilan xotirjam o'tirganda Amir Husayndan chonar keladi va shunday deydi: "Movarounnahr hukmdori siz yuborgan tulporlarni o'z uyuringizdan ekanligini bilib, qabul etmay rad qildilar... Olampanoh shunday dedilar: "Menga naqtini lozim... Xoramshoh Husayn sofi qoshiga durra yakto qizi Xonzoda xonimni so'rab sovchi yubormakchimen. Katta arzigulik sarmoya zarur" (7-bet). Xonzoda ismini eshitgan Jahongir Mirzo bir xil bo'ladi. Hayajondan yuzlari qizaradi. Bundan Jahongir Mirzoni malikada ko'ngli borligini sezamiz. Shu tariqa romanga sevgi syujeti kirib keladi. Bu hol, so'zsiz, romanga joziba bag'ishlagan. Chunki bu shu syujet chizig'i orqali saltanatdagi ayollar dunyosiga kirib boramiz. Ularning ma'naviyatidan, ya'ni kiborlar jamiya-tinning odob-axloqidan ko'nglimiz ko'tariladi, o'zbekning o'zligining ildizi qaerda ekanligidan ogoh bo'lamiz. Bundan ko'rinadiki, voqeadan voqea tug'iladi, bir-

²⁶ С. Н. Григорян. Сруднсвековой фласофия народов Ближного и среднего Востока, 156-бет.

²⁷ Темур тузиклари. – Т.: 1996. –Б. 113.

²⁸ Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Биринчи китоб. - Т.: Шарқ нашриёти. 2002 йил, 7-бет. Бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олинади ва фақат бети кўрсатилади.

biriga bog‘lanadi, oqibat voqealarning izchillik tizimini tashkil qiladi. Bu yozuvchi mahoratini belgilaydigan va ta'kidlashga arziydigan holatdir. Ushbu voqealar zamirida har bir qahramon qiyofasi bo‘y ko‘rsatadi, o‘ziga xosligi ochila boradi. Ularning hayotga, voqyelikka va odamlarga bo‘lgan munosabatlaridan, xatti-harakatlaridan, gap-so‘zidan inson saboq oladi, tariximizni, ya'ni har jihatdan qudratli davlatga ega bo‘lganimizni ko‘z oldiga keltiradi. Bunday davlatni Amir Temur yuzaga keltirganiga imon keltiradi,

Mazkur romangacha yaratilgan badiiy asarlarda Amir Temur obraziga ko‘proq zohiriy, ijtimoiy faoliyatiga, ya'ni jangu jadaldagi qahramonliklari, markazlashgan yirik davlat qurishdagi sa'y-harakatiga e'tibor berilib, uning mashinnoy laviy, shaxsiy hayoti, ruhiy dunyosi aytarli yoritilmagandi. Muhammad Ali shu kamchilikni bartaraf etib, juda to‘g‘ri ish qilgan. Axir, kishining nomi har doim ham uning tabiatini belgilamaydi-ku?! Amir Temur ham ismi Temur bo‘lgani bilan qalbi temir emas. U o‘zi va pirlaridan yaxshigina diniy saboq olgan. Diniy ta'lim esa kishini shafqatsizlikka emas, rahmdillikka va kechirimlilikka undaydi.

Inson axloqini belgilaydigan asosiy tuyg‘ulardan biri andishadir. Bunday tuyg‘uga ega bo‘lgan odam o‘zini ko‘p nojo‘ya harakatlardan tiyadi, chunki bu tuyg‘u insoniylikni belgilash, har bir narsaga adolat bilan yondashtirish xususiyatiga ega, Amir Temur shunday xususiyatga ega. U haqida yozilgan tarixiy va o‘z qo‘li bilan yozilgan asarlarda bu narsa qayd qilingan. Mahammad Ali esa buni badiiy haqiqatga aylantirgan. Mazkur xususiyat Amir Husayn haramidagi ayollar nazardan o‘tkazish voqeasida juda yorqin o‘z ifodasini topgan. Haramning madhi ulyosi chingiziylardan bo‘lgan Tormishhonning qizi Sevinch Qutlug‘ oqa edi. Shundan u Temurbek o‘zini tanlashiga ishongan edi. Bu borada yozuvchi yozadi: "Temurbekda chiroyli ayolni ko‘rgan erkakda bo‘ladigan yoqimli qiziqishday bir tuyg‘u uyg‘ona boshladi... Sevinch Qutlug‘ oqa, haramning madhi ulyosi, xon qizi martabalari havo berib Temurbekka bir nigoh tashladi... Qulfi dili endi ochilib kelayotgan Temurbek seskanib ketdi, malikaning ko‘zi qattiq edi. Shu hamma narsani hal qildi. "Yaxshilikning ibtidosi sharmdur" - xayolidan kechirdi Temurbek" (113-bet). So‘ng, "Sevinch Qutlug‘ oqa sohibqiron haramiga bezak

bo'ladi, deb shubha qilmagan amirlarni" hayron qoldirib, o'ziga emas, balki Hinduvon muhorabasida jon olib, jon bergan, Toshkentdan yetib kelgan do'sti Bahrom Jaloyirga munosib ko'radi. Insonni mehnatiga yarasha qadrlashni mana shunday noyob yo'llarini qo'llaganidan amirlar Temurbekka juda sadoqat bilan xizmat qilishadi. Buning samarasi esa g'alaba.

Qaysiki davlat boshlig'i adolat bilan ish yuritsa, o'z xalqiga joy bo'lsa, o'sha yurt taraqqiy topadi. Amir Temur shunday yo'l tutgan. Chunki o'z pirlarining o'gitlariga quloq solgan. Amir Husayn ustidan g'alaba qilgach, Movaraunnahr hukmdoriga aylandi. Uning taxtga minish munosabati bilan piri quyidagicha nasihat qiladi: "Fitna, fisqu fasod tikonlarining o'sishiga erk bermagay. Quadratini o'z fuqarolarini himoya etishga qaratgay. Bandalar ichida martabaga erishgani bechoralarga g'amxo'rlik qilish uchun berilg'onini tushung'ay. Saltanat shavkatini holdan ketib yiqilgonlarga qo'l cho'zishda, deb bilgay... Jumla mo'minlarni, el-ulisni baxtli etmakning yagona yo'li ekanini anglagay!.. Oллоh berg'on kuch-quadratni adolatni yuzaga chiqarishga sarf etgay, kuch adolat erkoni aslo unutmagay..." (126-bet). Bu fikr o'z davrida Amir Temurga qaratilgani bilan nihoyatda purhikmatligidan butun bashariyat hukmdorlariga qarata aytilgan deb anglamoq darkor. Bu fikrni haqiqat ekanligi oradan yetti yuz yilga yaqin vaqt o'tgani bilan hamon dolzarbligi va ahamiyatligidadir.

Amir Temur deyarli barcha faoliyatida Qur'on o'gitlariga amal qiladi. Qur'onda shunday deyiladi: "Afv qilmog'ingiz, ko'ngilni keng tutmog'ingiz va kechirmog'ingiz yaxshidir. Albatta, Oллоh kechiruvchi va rahmdildir" ("Tag'obun" surasi, 14-oyat). Amir Temur Shibirg'on hokimi Zindachashm, Xuttalon hokimi Amir Kayxusrav, Qarshi viloyati hokimi Amir Musolarning xiyonatlarini ketma-ket kechiradi, lekin ular (Kayxusrav, Zindachashm) bu iltifotdan tegishli xulosa chiqarmagach, jazolaydiki, bu endi adolatdir.

Amir Temurning o'z yaqinlariga, farzandlariga, ayniqsa, opasi Qutlug' Turkon oqaga bo'lgan mo'ruvvati, jiyanlari, kelinlariga munosabatida haqiqiy o'zbekning mentalitetini belgilaydi. Chunki bu o'zga millatlar havas qiladigan o'ziga xoslikdir.

Romanda Jahongir Mirzo va Xonzoda begim hayoti bilan bogʻliq boʻlgan tasvirlar kishi qalbini yashnatib toboradi. Bir-biriga mos, bir-biriga intiq yoshlarni qovushishi kishini qanchalik xursand qilsa, yigirma yashar shahzodaning kasaldan kundan-kunga soʻlib borishi va farzandini qoʻlga olishga madori yetmay, burnidan qon otilib, jon taslim qilishi oʻrinlari Xonzoda begim bagʻrini qanchalik kuydirsa, kishi qalbini shunchalik vayron qiladi. Lekin Jahongir Mirzoning jangdagi jonbozligi, mardligi Xonzodabegim dugonalarining naqliy bilim yuzasidan savol-javoblari kishi qalbida naqshlanib qoladi. Bu ularning adolat, ezgulik yoʻlidagi aʼmollari, maʼnaviyati goʻzalligidir. Demak, ezgu aʼmmolar, maʼnaviyat, goʻzallik oʻlmaydi, bu yaxshi aʼmollar kabi ularning sohiblari ham tirikdir. Ularning qismati shunday falsafiy haqiqatni anglatadi.

Romanning ikkinchi kitobi "Umarshayx Mirzo" deb ataladi. Asar Oyatin Oʻrda xoni Urusxonning mashvarati, unga soʻz qaytargan Toʻxtamishning otasi Toʻyxoʻjaning yasoqqa yotqizilishi voqealari bilan boshlanadi, Shu voqea munosabati bilan chingiziylar avlodi, xususan, Oʻzbekxon, Urusxonlar haqida ancha keng tushunchaga ega boʻlamiz. Va koʻp tarixiy voqealarni ochib berish, u bilan shaxslarning, jumladan, Amir Temurning tabiatini, shaxsiyatini inkishof qilishga, shuningdek, syujet koʻlamini kengayishiga imkon beradigan Toʻxtamishxon xarakteri kirib keladi.

Insonning-insoniyligi faqat u qilgan yaxshi aʼmollaridagina belgilanmaydi, balki insoniy tuygʻular bilan ham belgilanadi. Yaʼni odamlar fojiasidan, baxtsizligidan chindan kuyinishi, iztirobga tushishi kishini ezgu qalbligidan nishonadir²⁹. Chunki har kim bunday holga tushmaydi. Lekin Amir Temur tushadi. Jahongir Mirzoning oʻlimi, oʻn yetti yoshida goʻzal kelini Xonzoda begimning beva qolishi uning qalbini behad ezadi. Bu holatlar romanda taʼsirchan va haqqoniy berilgani uchun Sohibqiron shaxsiga nisbatan mehr uygʻotish, unga nisbatan avvalgi qarashlarni toʻzgʻitib yuborish bilan birga, inson qalbini bir qadar poklaydi. Bupi yozuvchi shunday ifodalaydi: "Judolikning achchiq sharbatidan totgan, motam libosiga oʻralgan Amir Temurning figʻoni cheksiz edi.

²⁹ Каримов Х. Истиклол даври насри. - Т.: Зарқалам, 2007. –Б.37.

Og'ir musibat tap tortmas, uning qudratli qaddini bukishga orzumand ekanligini yashirmasdi. Sohibqironning, menga endi hech narsa kerak emas, dunyosi ham, saltanati ham, bas, dunyodan ilik uzdum, deya Bog'i Chinorga borib, doxohga yoniga hech kimni yo'latmasliklarini qattiq tayinladi.

Uchinchi kuni kechasi birdan Amir Temurning o'pkasi to'lib ketdi. Jahongir Mirzo qaytib kelmaydi! Bu achchiq haqiqatni go'yoki endi anglab yetganday, Sohibqiron alamu otash ichida ko'z yoshini tiyolmasdi. Oyoq tomonida tiz cho'kkancha mudrab o'ltirgan Saroy Mulk Xonim sezib qolmasligi uchun yuzini yostiqa qattiq bosib oldi. Baxmal yostiqa uning ichidan otilib chiqayotgan ingroq saslarini o'z ichiga yutar, ko'z yoshlaridan yoqasiii xo'l qilar edi".

Bu hol asta-sekin ijtimoiy tus oladi. Saltanatga ko'z tikkanlar ko'p edi. Odilshoh Qamariddin havf solishi yetmaganday, Xorazmshoh ham saltanatga qo'shin tortishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Agar saltanat tayanchining mazkur ahvoli uzoq davom etsa, bundan ham battar qora kunlarga duch kelish mumkin. Shundan yaqinlari tashvishga tushib qoladi: bu o'rindagi tasvirlar uch maqsadga xizmat qiladi. Birinchi, yaqinlarining fojia mohiyatini chuqur his qilish va anglash, uni uyushgan holda chorasini topishg'a intilishdir. Uchinchi, insonning shaxsiy fojiasidan foydalanib qolishga uringan kimsalarning haqiqiy qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Bu voqealar jamlanganda inson tuyg'ulari tarbiyalanishi bilan birga, hayotni, odamlarni anglash shuuriga shuur ham qo'shiladi.

Bu borada, ayniqsa, ayollar - Saroymulxonim va Amir Temurning egachisi Qutlug' Turkon o'z say-harakati bilan yorqin taassurot qoldiradi. Ular Sohibqironning niri Sayyid Barakani uning oldiga kiritib, bu g'amguzorlikdan, dunyodan etak siltashdan xalos etishadi.

Romanning sahifalaridan sahifalariga o'tgan sari, Sohibqiron o'zini tutgan, bajargan ishlari bilan bir qadar oddiylashib, insoniylashib, kishi qalbidan joy oladi, mehr qozonadi.

Mangqishloq hokimi To'yxo'janing o'g'li To'xtamish otasi qatl qilingach, O'rusxondan o'ch olish yo'lida qilingan urinish barbod bo'lgach, panoh istab Amir Temur qoshiga kelganda yaxshi kutib oladi. Bunday bo'lishi Jahongir Mirzoning

yo'qotish jarohati bitmaganligi ham sabab buldi. Negaki "To'xtamish o'g'lonning Jahongir Mirzonikidek zalvorli emas, ingichkaroq, biroz yoqimsizroq ovozi demasa, To'xtamish o'g'lon quyib qo'yganday... Jahongir Mirzoning naq o'zi edi! Bo'yi ham, kelbati ham... Mazkur ko'rinishdan ta'sirlangan Temur beixtiyor: "Xush kelibsiz, o'g'lim! Xush kelibsiz", - deb yuboradi (87-bet).

Katta ziyofat berilgach, sonsiz sovg'alar taqdim etiladi. Ular ichida Sohibqironiing eng sevikli uchqur oti Xon o'g'li ham bor edi. Keyinchalik Xono'g'lon badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. Chunki u o'zida falsafiy va ijtimoiy ma'no tashish bilan birga, To'xtamish tufayli boshiga tushgan va tortgan azob-uqubatlari odamiy sa'yi-harakatlar bilan uyg'unlashib, insoniylashadi.

Amir Temur Xono'g'longa hech qachon qamchi urmasdi, chopishini tezlatish uchun o'zangini niqtab qo'yishning o'zi yetarli edi. To'xtamish mingach, bo'lar-bo'lmasga sagriga qamchi tushadigan bo'ldi. Har qamchi tushganda badani seskanib, ustidagi odamni otib yuborishga chog'lanadi-yu, lekin omon saqlash qon-qoniga singib ketganidan bundan tiylardi. Sohibqiron ikki bora katta qo'shin bilan ta'minlab, maqsadga yetishish imkonini berdi. Lekin ikkalasida ham butun qo'shinni barbod berib, Amir Temur qoshiga qochib keldi. Albatta, jonining omon qolishi Xono'g'lon tufayli bo'ldi. Qozonchi bahodir ta'qibidan qanday omon saqlagani xususida yozuvchi shunday yozadi: "Qozonchi bahodir endi yelday uchib borayotgan To'xtamish o'g'lon izidan ot qo'ydi. Uning bu safar almashtirib olgan poygachi tulpori chakki emasdi, jaydari otlarning ikki-uch qadamini bir qilib bosardi. Bahodir duldulga qamchi soldi, kecha yog'ib o'tgan yomg'irdai yumshagai yer chopishga xalal bersa ham, jonivor Xono'g'lonni mo'ljal qilib o'qday olib ketdi.

...Ortdagi dushman nafasini sezgan Xono'g'lon qo'rquvni pisand qilmay, chaqinday shuvillab Dovdirsoyga sakradi!... Qozonchi bahodir qirg'oqqa yetib kelganda, Xono'g'lon loyqa suv girdobida yetmish qadamlar narida suzib borardi" (139-bet).

To'xtamish to'rtinchi marta qo'shini parokanda bo'lib, valine'mati oldiga qochib keladi. Bu safar tezda qabul qilmaydi. Mushohada qilib ko'rib, hatto voz

kechish qaroriga ham keladi. Lekin bir xursandchilik (Shohruh Mirzoning tugʻilishi)dan Temurning gururga berilib ketishi yana marhamatiga sazovor boʻlishga imkon berdi. Bundan koʻrinyaptiki, yozuvchi har bir voqeaning tugʻilishini, kelib chiqishi, Amir Temurning har bir xatti-harakatini mantiqiy asoslangan.

Dushman tomoidan qochib kelgan Oʻrung Temurning "Saltanat ishlari oʻlda-joʻlda... Yurtu el undan batamom umidini uzib qoʻygan. Joʻji ulusida Toʻxtamish oʻgʻlon undan yuz chandon yaxshiroq, Toʻxtamish oʻgʻlon kelsun, derlar, Toʻxtamish oʻgʻlonni tilarlar..." degan gapidan soʻng, Sohibqiron Temur Malikxondan tole yuz oʻgurganini ichki bir tuygʻu bilan idrok etdi. Shundan "Humoyun oʻrdudan zudlik bilan cherik yigilsin, Toʻxtamish oʻgʻlon izzatu ikromlarga sazovor etilsun, Amir Dovud, duyaglot boshliq Amir Oʻrung Temur, Muhammadbek ibn Muso, Gʻiyosiddin tarxon, Muhammad Miraklar koʻp lashkar bilan Sigʻnoqqa yuborilsun, Toʻxtamish oʻgʻlonni taxtga oʻtqazib qaytsunlar" (170-bet) degan oliy farmon beradi.

Toʻxtamish Sigʻnoq taxtini egallagach, xon nomini oldi. Lekin shu kuvdan boshlab feʻli aynidi, yaʼni valineʼmatining yaxshiligini unutilib, butun Movarounnahr taxtiga koʻz tika boshladi. Ajab, buni birinchi odamlar emas, Xonoʻgʻlon sezadi. Uning koʻrnamakligiga oʻziga xos isyon koʻtaradi. Avvalgidek Toʻxtamishxonning har ishorasiga soʻzsiz boʻysunmaydi, qadam bosishi ham oʻzgaradi, oldingi goʻshasi Samarqandni, sohibini sogʻina boshlaydi. Bu tuygʻu kuchaya borgan sari, hozirgi egasini asrash instikti susaya boradi. Bu borada yozuvchi shunday yozadi: "Jutak tashlab irgʻib borayotgan Xonoʻgʻlon sagʻrisiga qamchi tushib tursa ham, negadir jon-jaxdi bilan chopmas edi. U duiyoni kezib chiqdi. Hoji Tarxon, Saroy Berka, Moskoviya, Kafa va Tabriz koʻchalaridan gʻolibon oʻtdi. Lekin hech bir joy, hattoki Saroy Berkadagi uzun baland otxona ham Koʻksaroy yonidagi sayisxonaga oʻxshamasdi" (282-bet).

Xonoʻgʻlon har safar Samarkand yoʻliga tushganda shiddat bilan yelardi. Bunday qilishga birinchi sabab oʻz goʻshasini sogʻinch tuygʻusi boʻlsa, ikkinchisi, ustidagi sohibini yaxshi niyat bilan ketmayotganligini his qilishidan edi.

Donishmandlar: "Otda faqat zabon yo‘q, lekin aql, fahm-farosat, sezgirlik, ziyraklik, oriyat kuchli", - deganlaridek, Xono‘g‘lon nazdida, bu safar "To‘xtamishxon Samarqand tomonga qochib ketayotgan yo‘q... Chunki avvalgidek qochib ketsa, ortidan kimdir kuvishi kerak... Hech kim quvayotgani yo‘q... balki odatdagidek katta qo‘shin savashiga otlangan... Demak, jang kilish uchun bostirib borishmoqda... (280-bet). To‘xtamish ko‘rnamaklik qilib, haqiqatan ham, shunday yo‘l tutgan edi. Xono‘g‘lonning shaxdi pastligi shundan edi. Bundan jahli chiqqan To‘xtamish otni qamchilay boshladi. Zug‘um jonidan o‘tgan Xono‘g‘lon o‘kdek yelishga majbur bo‘ldi. Har safargidek Dovdirsoyga kelib sakrash o‘rniga, shartga chapga burilib ketdi, xonning egardan uchib ketishga oz qoldi. U lashkarni o‘zi boshlab berib, soydan olib o‘tmoqchi edi" ...Qahrini jilovlay olmagan xoqon tulporning bosh-ko‘zi aralash achchiq qamchi solganini bilmay qoldi! Qamchining uchi chayon chaqqanday Xono‘g‘lonning chap ko‘ziga tegdi va o‘t chaqnatib yubordi! Og‘riq jonidan o‘tib ketgan jonivor qattiq kishnagancha yuqoriga sapchidi! Buni kutmagan, egarda bamaylixotir o‘ltirgan To‘xtamishxon otdan qulab tushdi! Hamma o‘sha tomonga yugurib, xokon hazratlari atrofida girdikapalak bo‘lib qoldi. Tulpor bilan hech kim-ning ishi yo‘q edi. Xono‘g‘lon yengil tortganday bir kishnab os-monga sakradi-da, soy bo‘ylab Samarkand tomonga yeldan ham tez uchib ketdi va bir pastda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi" (287-bet).

Xono‘g‘lon ko‘p vaqtdai keyin o‘zi yaxshilik ko‘rgan sohibiga sadoqat ko‘rsatib, abgor holda, ya'ni qovurg‘alari turtib chiqqan, chap biqinida allaqanday yirtqichning chuqur tish izlari, o‘ng oyog‘i tizzasida kapa yara, chap ko‘zi yo‘q alfozda o‘z go‘shasiga yetib keladi. Amir Sayfiddin neko‘z oxista yer tepinayotgan Xono‘g‘lonning omon qolgan o‘ng ko‘zidan yosh oqayotganini ko‘radi, chunki u yig‘layotgandi. Bu Amir Temurning ochiq ko‘ngilligidan ko‘p munhatlar foydalanganligidan, shuning orqasidan o‘zining ham jaf o‘rtganligidan o‘kinch yoshi edi. Ikki kundan keyin Xono‘g‘lon jon taslim qiladi. Xono‘g‘lon qismati kishiga ko‘p narsa beradi. U tabiat ramzidir.

Tabiat esa yasamiyatdan ko'ra hamisha sof va illatlardan holidir. Insoniyat hamisha bir-biriga ta'sir omilidir. U hatto olamdan ketgan jarayonida ham o'z funksiyasini bajaradi, ya'ni odamlarni bir kadar ko'zini ochib ketadi, ayniqsa, yaqinlarini. Umarshayx Mirzo og'asi Jaxongir Mirzo vafo-tidan keyin endi ko'p narsaga o'zi mas'ul, otasidan so'ig o'zi javobgarligini his kiladi. Shundan otasini To'xtamishga qilgai muruvvatidan ranjiydi. Bu romanda, shunday yoziladi: "Yuz berayotgan voqealarning nimasidir. Umarshayx Mirzoga yoqmas, shuidan ko'ngli xira edi. Unga go'yo dushmanni ko'ra-bila turib, do'stlarday qarshi olinganday tuyular, bundan ichi kimdandir koyinardi" (96-bet). U To'xtamishning niyatini qalban his qilgan edi. U o'zining niyatini ichki monologda shunday izhor qiladi: "To'xtamish! o'g'lon hech qachon kimlarningdir qo'lida ko'g'irchoq bo'lmaydi, balki hammasini qo'g'irchoq o'ynatadur. Hali shinday o'ynatsunki!.. Faqat qo'liga taxt jilovi tegsin!" (99-bet). U aytganini qildi. Amir Temur ko'magida taxtga o'tirgan kundan boshlab, kuchlarni bo'lish niyatida turli hiylalar ishlatdi. Lekii o'ylagan ishining birortasi ham amalga oshmadi. Amir Temurning mushkulini qandaydir ko'rinmaydigan kuch oson qildi. Bu albatta, adolatli a'moliga Yaratganning marhamati edi.

Hiylagar, qabohatdan nafratlangan kishi u bilan to'qnashganda, bir kuchiga o'n kuch qo'shiladi. Umarshayx Mirzoda shunday hol ro'y beradi. To'xtamish qochib, o'z kishisi orqali Doroning qo'shinini qay holga solgan bo'lsa, shuiday ko'yga solish niyatida qilingan sa'y-harakatdai keyin va, nihoyat, Sohibqiron qo'shiniga ro'para bo'ladi. Umarshayx Mirzo o'z lashkari bilan dushman ustiga nafrat bilan tashlanadi. Uning jang qilishini ko'rganlar: "Rustam xam bunday ishlarni qila olmaydi!" - deb olqishlaydi. U jang qilar ekap, "Eng katta og'irlikni o'z zimmasiga olganidan" mamnunlik hissini tuyishi bilan birga, galaba ishqida yuragi jo'shardi. Bu sa'y-harakat o'z samarasini berdi. To'xtamish jang maydonyni tashlab kochadi. Lekin bu safar ham aylapma, egri yo'l Umarshayx Mirzoga pand berdi, u esa qochib qutildi. Bu yerda egri, aylanma yo'l ramziy ma'noga ega. U - To'xtamishxonning qismatiga ishora. Chunki aylanma, egri yo'lning oxiri berk bo'ladi. Bunday yo'lning masofasi qisqadir. Lekin romanda real tarixda

bo‘lmagan, xayotiy mantiq inkor qiladigan o‘rinlar ham mavjudki, sof tarixiy asarda bunday holning bo‘lmasligi durustdir. Amir Temurni "tit-pitisi chiqib ketgan quloh, egnida urinibroq qolgan janda kiyib" darvesh holda bozoru mahallaguzarlarni aylanib chiqishi shaxsni bo‘rttirishdan boshqa narsa emas. To‘g‘ri, xalq ertaklarida, hikoyalarida, dostonlar, hatto yozma adabiyotda ham bunday hol uchraydi. Bu endi xalqning, ijodkorning idealidir. Buni Temurdek real shaxsga ko‘chirish joiz emas. Ayniqsa, o‘sha kiyimda ariq bo‘yida o‘tirgan qizning ismini so‘rashi o‘sha davr, tarix nuqtai nazaridan qaraganda, hayotiy mantiqqa ziddir! Buni yozuvchi o‘zicha shunday izohlamochi bo‘ladi: "Odatda, darvishu qalandarlardan qo‘rqib cho‘chimasdilar, ularga Xudoning beozor bandalari deb qaralardi" (176-bet). Bu gai umuman o‘sha toifadagi odamlarga tegishli. Lekin ayollar ro‘para kelishga cho‘chishgan. Ayniqsa, roman tasviridagi ko‘rinishga ega dar-veshning: "Ismingiz nima ekan, oyim qiz?" - deb so‘rashini tasavvur qilish qiyin. Chunki ularning nomahramga ran otishi aslo mumkin emas. Sababi shariat va tariqat qoidalari buni inkor etadi. Shuningdek, darvesh axloqiga ham ziddir.

II bob. YANGI YO‘NALISHDAGI ROMANLAR VA ULARDAGI OBRAZLAR TIZIMI

2.1. Bugungi kun romanlarining o‘ziga xosligi va ularda ijtimoiy hayotning aks ettirilishi

Sirtidan qaraganda, hozirgi davr adabiyoti eksperimental adabiyotdek taassurot qoldiradi. Haqiqatan ham keyingi yillar ichida shunday asarlar ("Ko‘zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Ffu", "Kapalaklar o‘yini" va boshqalar) vujudga keldiki, ular zamirida yotgan adiblar niyatini maxsus tayyorgarliksiz anglash qiyin. Chunki ular an'anaviy uslubda emas, G‘arbning modernistik adabiyot deb atalmish yo‘nalishida yozilgan. Ma'lumki, bu tarzda adabiyotda ob'ektiv olam, voqyelik, inson, uning xatti-harakati, u yashagan yoki yashayotgan jamiyat muhiti, mafkurasi yozuvchining tasvir ob'ekti bo‘lmay, balki insonning ularga munosabati, to‘g‘rirog‘i, uning tafakkur yo‘nalishi asosiy ob'ekt sanaladi. Kitobxon bevosita qahramon bilan emas, uning tafakkuri bilan munosabatga kirishadi, qahramon esa yozuvchi tomonidan yaratilgan inson emas, g‘ayritabiiy harakati, shuuri ila go‘yo o‘zini-o‘zi yaratgan (albatta, shartli ravishda) yozuvchini o‘z ong oqimi yo‘nalishiga soladigan intellektual shaxsdir. Lekin adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, insonni bir holatdan ikkinchi holatga soladigan, ezgulikka undaydigan, komil insonga aylantiradigan narsa shakl, katta falsafiy tafakkur emas, shu tafakkurning asos-zamirida yotgan mohiyatidir. Agar biz hozirgi romanlarga shu mohiyat nuqtai nazari bilan yondashsak, ular shaklan yangi bo‘lgani bilan, mazmunan asl o‘zbek adabiyoti an'analarini eslatadi.

Omon Muxtorning "Ko‘zgu oldidagi odam" romani shu tipdagi asardir³⁰. Romanning bosh qahramoni Vali asar syujetini tashkil qilgan Siroj muallim va uchuvchi Badalbek kabi obrazlar o‘limi sababini aniqlashga qanchalik intilsa, kitobxon ham shunchalik bilishga harakat qiladi. Oqibatda asar qahramoni bilan kitobxon o‘rtasida farq yo‘qoladi. Buning sababi roman syujeti chizig‘ini voqyelik emas, qahramon ongi yo‘nalishi tashkil qilganligidir. Bu ong oqimi, o‘z navbatida, kitobxon ong oqimi bilan omuxtalashib ketadi. Oqibatda ikkalasi, ya'ni qahramon

³⁰ Омон Мухтор. Минг бир киефа. - Т.: Шарк, 1994. –Б.87.

Vali bilan kitobxon masala mohiyatini bilishga intilgan yakka shaxsga aylanadi. Ularning tafakkurlari bitta masala tomon yoʻnaladi.

Romanda Siroj muallim va uchuvchi Badalbek shaxsi haqida bosh qahramon Vali nuqtai nazaridan shunday axborot beriladi: "Siroj muallim odamlarga kam qoʻshilib, janjallashib yursa hamki, goʻzal olijanob edi! Badalbek oʻz ishini toʻgʻri bajarishga uringan, oʻz kasbining ustasi ekaniga qaramay, yovuz kishi edi! Men xuddi shunday derdim"³¹. Bu fikrdan soʻng Siroj muallimga nisbatan qandaydir mehr, Badalbekka nisbatan kishi qalbida qahr yuzaga keladi. Lekin ular nimagadir, "Osmon negadir oʻz-oʻzidan darz ketib, qoq toʻrt boʻlakka ajralgan" kun bir kunda halok boʻlishadi. Oradan ikki yil oʻtgach, yana "Bir kuni yomgʻir yogʻib, bu gal kupa-kunduzda pichoq bilan kesilgan sariyoqqa oʻxshab, osmon oʻz-oʻzidan toʻrt boʻlakka ajralgan" kuni Shirinkoʻldan olishlarga quloch otgan katta yoʻl boʻyida joylashgan choyxonada Vali Siroj muallimni koʻrib qoladi. Kishi tafakkuri voqea yuz bergan holat tomon yoʻnaladi. Nima uchun osmon toʻrtga boʻlinganda ikkala hodisa yuz berdi? Nega Shirinbuloqda achchiq qismat roʻy berdi?! Miyada tafakkur oʻz vazifasiga kirishgan sari, yozuvchi niyati aniqlasha boradi-yu, tafakkur yoʻnalishi bir toʻxtamga kelgach, mazkur narsalar ramziy ma'noga egaligi va uning zaminidagi haqiqat ayon boʻladi.

Osmonning toʻrt boʻlinishi - bu toʻrt qit'a. Uning katta, ham yevropa ham Osiyo joylashgan qismida butun dunyoga adolatli, eng insoniy mamlakat deb jar solingai sobiq SSSR joylashgan. Shirinkoʻl esa shu xududdagi shahardir. Voqea esa xuddi shu yerda sodir boʻladi. Demak, roman sobiq sotsialistik jamiyat voqyeli va shu jamiyat odamlari faoliyati hamda qiyofasini aks ettirish asosiga qurilgan.

Roman qahramoni Vali faoliyatini kuzatar ekanmiz, bir narsani anglab yetamiz. Ya'ni bugungi kunda oʻz nomi bilan atalayotgan totalitar tuzumning olib borgan ish yoʻsini, siyosati va uning oqibatida yuzaga kelgan, shakllangan shaxslarning asl qiyofasi tasvirlanganligini. Asarning murakkabligi shundaki, bu narsa ochiq aytilmaydi. Bosh qahramoni Vali koʻziga koʻringan gʻayritabiiy

³¹ Омон Мухтор. Минг бир киефа. - Т.: Шарк, 1994. –Б.89.

voqyelik zaminida inkishof qilinadi. Bu g'ayritabiiy voqyelik haqiqat bilan yo'g'rilgani uchun uning ramziyligi ko'pda sezilmaydi. Qaytaga real hayotda o'z xatti-harakatlari bilan kishi qalbiga o'tirishmaydigan shaxslar qilmishlarining tub asoslari oydinlashadi.

Vali muallim uyiga uning, haqiqatan, o'lgan yoki o'lmaganligini bilish uchun borganda "oila a'zolari" allanechuk baxtiyorligidan taajjubga tushadi. Buning ustiga, muallimning qizi Mamlakatxon unga behayolarcha ko'z suzadi. Keyinchalik eriga xiyonat ham qiladi. Har payshanba esa butun oila a'zolari allaqayoqqa ovga ketishadi. yerto'lada Siroj muallimning aynan o'zi — qandaydir maxluq yashaydi. Siroj muallim faoliyati bilan yaqindan tanishgan sari, masala mohiyati aniqlasha boradi.

Bir kuni Mamlakatxonning eri Ahmadjon Valini uchratib: "Men hammasini bilaman. Bolaniyam. Boshqasiniyam!" - deydi. Bunday hamiyatsizlikdan hayron bo'lasiz. Lekin atrofga qarasangiz, bundaylar sizning yurtinizda ko'pligiga ishonch hosil qilasiz. Tarixingizga nazar solasiz. O'tmishda o'z ayoligagina emas, balki yurtining ayollariga tik qaragan erkakning yoqasidan olgan jo'mard yigitlarni ko'z oldingizga keltirib, qani ular degan ichki nido tilingizga keladi. Sababini bilishga intilasiz. Mushohada qilasiz. Oqibatda ongingiz yo'nalishi bir nuqtaga kelib to'xtaydi va tilingizga bunday axloqsizlik va hamiyatsizlikning sababi inson qalbidagi iymon va e'tiqodning susayib ketganida, degan fikr kela-di. Nega bunday bo'ldi degan savol yana sizni tinch qo'yamaydi. Uning ildizini topishga intilasiz. Bu intilish Valisiz amalga oshmaydi. Jumboqning kaliti uning xatti-harakati orqali ochilishini his qilgach, u bilan bog'liq voqealarni ong elagida tahlildan o'tkazasiz.

Vali Badalbek qizi Hanifaga bog'lanib qoladi. Dastlab, Hanifa Badalbekning qizi bo'lgani uchun o'zini tortib yuradi. Lekin ko'ngil ham uzolmaydi. Sababi Hanifaning vujudida qandaydir bir nur bor edi. Bu nur Vali vujudiga ham kirib, unda yangi insoniy odatlarni yuzaga keltiradi.

U ko'p yillardan beri ota-onasi qabrini ziyorat qilmasdi. Endi borib ruhlariga tilovat tushuradigan bo'ldi. Chunki bu Hanifa uchun odatdagi hol edi. Hanifadagi bosiqlik va bardoshlilik uni lol qoldirdi. U bilan taqdirini bog'ladi. Lekin u bir

narsaga hayron. O'zi mehr qo'igan Siroj muallimning farzandlarida Hanifadagi fazilatlar yo'q. Yozuvchi bu bilan milliy qadriyatlarni asosi bo'lgan Qur'on va hadislarida ilgari surilgan fikrlar to'g'riligini asoslaydi. Ya'ni poklik bilan bino bo'lgan va shunday asosda tarbiya topgan farzandlar qalbi insoniylik bilan yo'g'rilgan bo'ladi.

Hanifa otasi xususida quyidagi fikrni bildiradi: "... lekin qarg'ish tekkanidan omad yuz o'girdi... Dadam taqdir aylanib, Shirinko'lda oddiy aeroplarda uchayotganidan, qilayotgan ishidan norozilanib, ba'zan ezilardi...

- Bilasizmi, dadam erkin, mag'rur kishi edi. Hayotda birovga bo'yin egmasdi. Har kimning gapiga kiravermasdi... lekin uning uchun buyruq muhim, u askar edi! Shunday tarbiya olgandi. Unga buyurilsa, bas, o'tga, suvga tashlanardi! Qulga aylanardi... Men dadamni oqlamayman. Shu bilan birga, ayb faqat dadamda emas. Tushuning!"

"Tushuning!" so'zidagi xitob faqat Valiga qaratilgan emas. Keng ommaga, ya'ni kitobxonlarga qaratilgandi. Demak, Badalbek, aslida, yaxshi odam bo'lgan. Lekin o'z erki o'zidan ketgach, buyurilgan narsani to'g'ri, qonuniy deb bajarib, insoniyat va tabiat olamiga ko'p zarar yetkazgan. Manqurtlik qilgan. Insoniylikka va vijdoniga zid yo'l tutgan. Bu narsa o'z mevasini bergan. To'ng'ich qizlari beo'xshov, bo'yinlari yo'q, kallasi shundaygina yelkasiga qo'ndirib qo'yilgandek tug'ilgan. Lekin Badalbek yoshi o'tgan sari o'z xatti-harakatining salbiy oqibatlarini anglay boshladi. Hayotda o'zi va unga o'xshaganlarning tutgan ishi tufayli sodir bo'layotgan voqeadan vijdoni uyg'ona boshlaydi. Biroq noilojlikdan qiynaladi. Hanifa ana shu uyg'onayotgan vijdonning mahsulidir. Badalbekdagi vijdon uyg'onishining sababi bor. Chunki u bajarayotgan vazifasini o'z ixtiyori bilan emas, balki majburiyat orqali amalga oshiradi.

Siroj muallim unday emas. O'zi yashab turgan jamiyatning tutgan ishiga mamnuniyat bilan xayrixohlik bildiradi. Hatto xo'jayinlariga yoqish uchun ba'zi narsalarga tashabbuskorlik ham qilib turadi. Shundan o'zi yashab turgan jamiyat kabi ikki - zohiriy va botiniy qiyofaga ega. U zohiriy ko'rinishda o'zini madaniyatli, ziyoli, xokisor, ayollarni qadrlaydigan kimsadek tutadi. Botiniy, ya'ni

asli qiyofada esa o‘ta qabih insondir. U insonlarnigina emas, o‘zi yashab turgan yurtini ham erkin, ozod bo‘lishini istamaydi. Mustaqil yo‘l tutishiga ishonmaydi. Uning nazarida, o‘z xalqi, yurti bunga qodir emas. Yuqoridan aytilgan buyruqlarni bajarib tursa bo‘ldi. Bu fikr o‘zi yashab turgan jamiyatniig yurgizgan siyosatiga juda mosdir.

Hayot haqiqatidan ma'lumki, kishini o‘zidan yaxshi biladigan odam yo‘qdir. Shundan Siroj muallim ko‘zguga o‘zini soladi. U ko‘zguda ham o‘z zohiriy ko‘rinish ifodasini istaydi. Lekin ko‘zguni aldab bo‘lmaydi. U - mahak toshdek gap. Kishining asl borlig‘ini ko‘rsatadi. Siroj muallim ko‘zguda har safar o‘zining asl qiyofasini ko‘rganidan, alamidan uni sindiradi.

Siroj muallimniig faoliyati oilasida ham o‘z ifodasini topgan. Birinchi xotini Mahluqodan qandaydir mahluq tug‘ilgan (qilmish qidirmish), keyingi oilasidagilar esa sirdan yiltiroq, aslida, axloqsiz va hamiyatsizdir. Ularning oilasi bilan hech kim qo‘shnichilik ham, aloqa ham qilmaydi. Yozuvchi uchun bu oila - bir timsol. Uning zaminida va Siroj muallim obrazida muhim haqiqatni ochadi. Ya'ni totalitar jamiyatning asl qiyofasi va turli nayranglarini ko‘rsatadi.

Romanda qahramon xayoloti mahsuli bo‘lgan voqyelik bilan real hayotiy tasvir omuxtalashib ketgan. Bu esa ramziylikni yanada kuchaytirgan³². Romanning oxirgi "Haqiqat" deb nomlangan sahifasida Vali tilanchi bilan qayiqqa o‘tirib, bir orolga boradi. Orol chakalakzordan va bog‘lar, gulzorlardan iborat. U yerda turli hayvonlar va qushlarni ko‘radi. Lekin ularning bironyasi o‘z ko‘rinishiga ega emas. "Atrofda to‘p-to‘p pada sudralib yuribdi, Qarasang rostmana qo‘y, ammo hammasining boshi, basharasi cho‘chqa... Biroq bu yerda antiqa qushlar, antiqa hayvonlar: durugaymi?.. Nasl-zotiga tushunish mushkul..." Bu tasvir o‘zimiz 70 yil yashagan mamlakatni yodga solmaydimi? Bizningcha, aynan o‘zi. Chunki nomimiz o‘zbek bo‘lgani bilan, kiyinishimiz, turq-atvorimiz o‘zbekka o‘xshamasdi. Musulmon bo‘la turib, xatti-harakatimiz unga yaqin ham kelmasdi. Demak, bu tasvirda biz sobiqjamiyat qiyofasini ko‘ramiz. Chunki uning tutgan ishi aslo sotsialistik jamiyat nomiga mos kelmasdi.

³² У. Ҳамдамов. Бадий тафаккур тадрижи. - Т.: Янги аср авлоди, 2002. –Б.39.

Vali. mazkur orolda ikki qavatli yog'ochdan tiklangan binoni ko'radi. Bu binoda "lipillab yonayotgan shamdek manaman degan odamni ham dindan chiqaradigan ertaklardagi singari go'zal, sohir va xayoliy bir sanam raqsga tushmokda edi". Bu raqsga mahliyo bo'lgan qahramon boshiga tushgan zarbadan hushidan ketadi. O'ziga kelganda, o'zini "qandaydir zanjir bilan bog'langan" holda ko'radi. Hushini yig'ib atrofni kuzatganda, quyidagi manzarani ko'radi: "Xonada chiroq yo'q. Lekin devorlarda oyna tortilgan qator tuynuk-tokchalar; ularning har birida bittadai chiroq yonar edi". Bu tasvir o'z mustaqilligi, insoniy qadr xususida so'z yuritganlar Siroj muallim kabilarning chaquvi ostida olib boriladigan idoraning ko'rinishi, u yerda ishlaydiganlarning yashash tarzi va kishiga qilinadigan muomalaning aniq ifodasidir.

Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba" romani ham kompozitsiyasi, qahramoining xatti-harakati, syujetiga asos bo'lgan voqealar o'zi ko'nikma hosil qilgan asarlarga o'xshamaydi. Negaki u bilgai, o'qigan romanlarda bir qator qahramonlar bo'lardi, ular o'zaro konfliktga kirishadi, dialogda bir-biriga davr va uning siyosati xususida dono gaplar aytishib, ustunlikka erishishga intilardi. Mazkur roman esa unday emas. Asosan, bitta qahramon faoliyat ko'rsatadi, u bir o'rinda, ya'ni roman boshida rahbari Mardonqul aka bilan dialogda bo'ladi. Xo'sh, gap nimada? Gap, yuqorida aytganimizdek, asarning yangi usulda, modern adabiyoti yo'lida yozilganida. Ma'lumki, modernistik adabiyotda yuqorida ko'rib o'tganimizdek, jamiyatda ro'y bergan, sodir bo'layotgach voqea-hodisalar, insonlarning xatti-harakatlari, ular yashagan makon, muhit real holda badiiy to'qimalarga aylantirilmaydi, balki ular inson tasavvurida in'ikos etiladi. Kitobxon to'g'ridan-to'g'ri qahramon bilan muloqotda bo'lmaydi, uning tafakuri bilan to'qnashadi, Ikkinchi xil qilib aytsak, aql-idrokning faoliyati orqali ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmas dunyo - insonning botiniy olami bilan baqamti bo'ladi. Ma'lumki, inson tafakkurining imkoniyatlari cheksiz. Demak, roman voqealari hududining chegarasi yo'q. Bosh qahramon Mirzo G'olib tafakkuri bir daryo bo'lsa, u ummonga qarab oqadi. Ummon esa olam kabi kengdir. Lekin bu abstrakt emas, romanda o'z aksini topgan voqyelikka diqqat qilingan sari u

reallashib boradi. Chunki u ko'ngil mulki bo'lib qolmay, til - ichki monolog orqali makondagi narsa yuzaga chiqadi, maqsad aniqlashadi. Faqat buni anglash uchun kitobxon ong faoldiyatining barcha nuqtalari junbushga kelishi, faollashi lozim. Tashqi olamni idrok qilish borasida botiniy olamni anglash iqtidoriga ega bo'lmog'i darkor. Malumki, har kim bunday iqtidorga ega emas. Roman insondan shunday olamga va insoniyat dunyosiga ongli munosabatda bo'lishni talab etadi. Shunday yondashilganda, romanda ilgari surilgan yozuvchi konsepsiyasi aglashiladi. Demak, asar kitobxondan tafakkur faoliyatini, ong yo'nalishini talab qiladi. Bu in-soniyat uchun zaruriyatdir.

Romanda tafakkur yo'nalishi ruhiy olam inkishofiga qaratilgan. Ya'ni ruhiy poklik, ruhiy mardonavorlikning tashqi olamga o'tkazgan ta'sir kuchining mohiyatini ochishga. Bu kuchning olamni yuklashdagi roli, ruhiy poklarning sa'y-harakati, qismati, fojiasi xususidagi haqiqat ruhi botir shaxslar botiniy olami tasvirida ochib beriladi³³. Bunday bo'lishi bejiz emas. Chunki qadimgi diniy-falsafiy asarlarda "Hayotdagi eng katta jasorat ruhiy botirlikdir", Deyiladi. Adib ana shunday ruhiy botirlar ong yo'nalishi inkishofida odam va olamning poklanish zaminini ko'rsatadi. Albatta, yangicha yo'nalishda.

Insonda nafsga nisbatan moyillik kuchaysa, unda hayvonlik xususiyatlari ortadi. Ruh ilohiy nemat bo'lib, barcha yaxshilik u tufayli yuzaga keladi. Romanning tub asosida ham shu g'oya yotadi.

To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" yangi tamoyildagi asar sifatida tilga tushdi. U haqda turli fikrlar bildirildi. Hatto absurd adabiyotining yaxshi namunasi deb talqin qilishdi. Roman poetikasidan ilmiy ish yozgan Z. Pardaeva: "T. Rustamning "Kapalaklar o'yini" romanini³⁴ tahlil qilar ekanmiz, absurd romanining talqin manbai absurd hayot ekanini anglaymiz. Hayot haqidagi falsafiy mushohadalarni ko'p ovozlilik, psixologik tahlil me'yoriga yetkazdi. Romanning g'oyaviy, badiiy mazmuni qahramon mansub absurd hayot in'ikosi sifatida namoyon bo'lganini, badal armon esa absurd qahramon sifatida shakllanganini,

³³ У. Норматов. Умидбахш тамойиллар. — Т.: Маънавият, 2000. —Б.41.

³⁴ Тўхтамурод Рустам. Капалаклар ўйини. — Т.: Шарқ, 2000. —Б.82.

absurd har qanday davrda, har qanday holatda ma'nisizlik ekanini ochib berishga xizmat qiladi"³⁵.

Lekin romanni o'qigan odam hech ham bunday emasligini anglaydi. Birinchidan, absurdlik asar voqyeiligida emas, yozuvchining konsepsiyasida ko'rinadi. Chunki yozuvchi hayotdagi, insonlar tabiatidagi illatlar, ulardagi nomukammallikni Nasim, Ibod, Shoshiy, Eshim ish, G'oyib, Gulnoz, Hulkar obrazlarida aks ettirishga intilgan. Biroq ularning xatti-harakati, faoliyati tasvirda emas, shunchaki, sistemaga solinmagan bayonda berilgan. Shundan birorta obraz kishi yodida qolmaydi. Asarning annotatsiyasida: "Teran ruhiy tahlil, yuksak majoziylikka asoslangan asar", deyiladi. Biroq amalda bu narsa ko'rinmaydi. Yuqorida sanab o'tilgan qahramonlarning boshidan o'tgani, ularning tabiati qaytariqlar bilan hikoya qilinadi. To'g'ri bular misolida ham kishilarning ongiga, ruhiga ta'sir qilsa bo'ladi. Buning uchun qahramonlarning faoliyati bilam bog'liq bo'lgan voqeyilik zahirida katta falsafiy haqiqatni, ijtimoiy muammoni singdirsa, shuningdek, qahramonlari hayotda kechayotgan nohaqliklarni, adolatsizliklarni anglab iztirobga tushsa, hayotda insonlarning insoncha yashamasligi, bunga jamiyatda imkoniyat yo'qligining sirini anglashga intilsa, bu boradagi fikrlarni bayon qilsa, asarlar voqealari mana shunday masalaga yo'naltirsa yangi tamoyildagi roman sifatida o'zini oqlardi. So'zsiz, yozuvchi o'z oldiga shunday maqsadni qo'ygan. Afsuski, unga erisha olmagan. Modern yo'nalishdagi asar abstrakt rasmlarga o'xshab, qanday tushunsang- shunday angla deb, duch kelgan voqeani boshi-keti yo'q tarzida hikoya qilish emas, balki ular ma'lum bir konsepsiyaga ega bo'lib, ma'lum maqsad sari yo'naltiriladi. Bu qahramon orqali amalga oshiriladi. Modern yo'nalishdagi asar qahramonlari esa, o'z o'y-xayollari, ong oqimi misol miyada yo'nalgan fikrlarida o'zi yashayotgan hayotni teran badiiy talqin va tahlil qilib, olam muammosini anglashimizga yordam beradi. Shuningdek, o'zi yasha-yotgan jamiyat illatlarini go'yo mikroskobda ko'rgamday ko'ra oladi hamda uni shafqatsiz fosh qiladi, uni ildizlarini topishga intiladi yoki bu tuzumda, bu jamiyatda o'z maqsad va niyatlarini amalga oshirishning iloji

³⁵ Пардаева З. Ўзбек романлари поэтикаси. – Т.: 2003. –Б. 40.

yoʻqligini anglagach, tushkunlik kayfiyatiga tushadi, ertangi kunga ishonchsizlik oqibatida qahramon yolgʻizlanib qoladi, u goʻyo oʻz qobigʻiga oʻralib oladi, muammoning yechimini topa olmagan, ilojisiz qolgan shaxs qalbida ijtimoiy tengsizlik hukm surgan va inson insoncha yashash imkoniyatiga ega boʻlmagan jamiyatdan begonalashish tuygʻusi yuzaga keladi. Bularning barchasi teran ruhiy tahlilda, iztirob va fojilikning asosli inkishofida ochib berilmogʻi darkor. Bizga modern yoʻnalishdagi asar deb taqdim qilinayotgan roman qahramonlarining birortasi na fikrlaydi, na atrofdagi yuz berayotgan voqealarga munosabat bildiradi, mulohaza yuritadi, na ruhiy iztirobni boshdan kechiradi. Uning barcha doʻstlar orasida kechadigan, ular oʻrtasida boʻladigan voqealar hikoya qilinadi. Hatto yigitlar oʻzaro sir tutadigan (Eshim ishningʻ ogʻili bilan bogʻliq voqealar) ishlar haqida ham tortinmaydi. Toʻgʻri bu voqealar ichida jamiyat va insoniy illatlar fosh qilingan holatlar ham uchraydi. Lekin esda qolarli aniq holatda, tasvirda emas, tumtaraqay bayonda berilgani uchun kamdan-kam kishi uni anglab oladi.

Annotatsiyada aytilgan majoziylik ikki oʻrinda koʻrinadi. Bu — roman voqealari kechgan Baqahovuz makonida va asar nomi, yaʼni "Kapalaklar oʻyinida". Baqahovuz ramzida tashqi katta dunyodan ajratilgan, faqat muhit emas, fikrlash tarzi ham cheklangan kechagi totalitar tuzumni anglash mumkin. Maʼlumki, mazkur tuzum 70 yildan ortiq davrda bitta gʻoyani, yaʼni sotsializm gʻoyasini, uning butun dunyoda afzal tuzum ekanligi targʻib qilindi. Butun maʼnaviy olam— matbuot, sanʼat, teatr, adabiyot unga xizmat qildi. Aytilgan fikrlar yaxshi edi, lekin amalda esa uning aksi edi. Kishilar aytilgan fikrlarga monand harakat qilsa, taʼqib qilinardi. Dunyoda eng adolatli, barcha baxtli yashaydi degan tuzumda esa inson insomlarcha hayot kechirishmasdi. Bu borada rus yozuvchisi Svetlana Aleksievich shunday deydi: "Inson noinsoniy sharoitda uch kunda hayvonga aylanadi"³⁶. Aytilganga, matbuot orqali yozilganga, eʼlon qilinganga amal qilmaslik gʻirt bemaʼniylik - absurddir. Yozuvchi asarida shularni aks ettirmoqchi boʻlgani aniq. Lekin koʻrib oʻtganimizdek, bunga erisha olmagan.

³⁶ Норматов У. Умидбахш тамойиллар. — Т.: Маънавият, 2000. —Б.81.

Romanning atalishi asar qahramonlari xatti-harakatiga mos tushadi. Ma'lumki, kapalaklar juda qisqa umr ko'radi. Shundan, bizningcha, hayotini o'yin-kulgida, gul va chamanzorlar qo'ynida o'tkazadi, go'yo hayot jannatday. Roman qahramonlari ham fikrlamaydi, mulohaza yuritmaydi, faqat harakat qilishadi, jo'n yashaydi, umuman, hayotga nisbatan loqayd. Balki yozuvchi totalitar chuzumda jamiyatga nisbatan fikr bildirganlar taqib qilingani uchun odamlar fikrlash-dan qo'rqishadi, shundan ular loqayd demoqchidir. Bu to'g'ri va ijtimoiy xarakterga egadir. Afsuski, bu to'g'rida fikr romanda yorqin ifodalanmagan.

Zo'rlik asosida qurilgan har qanday jamiyatning umri qisqadir. Uning umrini qo'rquv va aldovlar asosida muttasil cho'zib bo'lmaydi. Romanga shu g'oya singdirilganda, u kapalaksimon harakatda bo'lgan qahramonlarining xatti-harakati, tutgan ishining badiiy tahlilida ochib berilganda, asar o'qishli va ta'sirli bo'lardi. Salmoqli fikr, mantiq kuchiga ega roman qahramonlari faoliyatga ega emasliklari yozuvchining modern yo'nalishdagi asar mohiyatini to'la o'zlashtirmaganidandir. Romanni hozirgi holida modern yo'nalishdagi muvaffaqiyatsiz bir urinish deb baholamoq kerak.

2.2. Istiqlol davri muammolarining inson tabiyati, ma'naviyati, ruhiyatidagi badiiy ifodasi

Istiqlol davri adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri imon va e'tiqod, shuningdek, ma'naviyatga katta e'tibor berilishidir. Bu davr adabiyotining qahramonlari - o'ta ma'naviyatli va o'ta mulohazakor shaxslar. Olam va odam haqida keng fikr yuritadi, hayot, jamiyat illatlaridan, yangi tom ma'nodagi ma'rifatsizlikdan, adolatsizlikdan, nohaqlikdan, yolg'onchilikdan, eng muhimi, imon va e'tiqodsizlikdan qayg'urishadi, iztirobga tushishadi. Yana shunisi muhimki, ular bu illatlarni jamiyat muhitga bog'lashmaydi, bunga shular aybdor deb bilishmaydi, balki barchasiga insonning o'zi sababchi deb qarashadi. Ya'ni imon va e'tiqodning susayishi deb biladi. Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanining asosida xuddi shu narsa yotadi. Bozor so'zi - ramziy ma'noga ega. U ikki ma'no anglatadi. Birinchi ma'no hayot, jamiyat, bugungi kunni ifodalaydi. Hayot va jamiyatning tanazzuli odamlarining unga munosabatida tabiiy, dialektik

qonun asosida bo'lmagan, volyuntaristik siyosat asosida bo'lgani uchun bo'lsa, bozorning ichidan yemirilishi u yerdagi qalloblik, odamlar haqiga hiyonat qilishlik, ya'ni tarozidan urishlik, aldanchilik, riyokorlikdir. Bu bugungi kun hayotiga, uning manzaralariga ishoradir. Bu esa insonning qalbida insoniy tuyg'ulardan ko'ra nafs tuyg'usining yetakchilik qilishidandir. Qur'oni Karimning "Qasas" surasining 50-oyatida shunday deyiladi: "Agar sening chaqirig'inga javob bermasalar, bilki, ular havoi nafslariga ergashmoqdalar. Allohning hidoyatini qo'yib, havoi nafsiga ergashgan kishidan ham adashganroq odam bormi". Albatta, Alloh zolim kishilarni hidoyatga boshlamaydi. Romanda esa quyidagicha yoziladi:

"Bozor - o'z nomi bilan bozor, lekin u yutoqqan, nafs bilan topishsa bormi, odamlarning sho'ri quridi deyaver!.. To'g'ri, nafs bo'lmasa, bozorga ham hojat qolmas edi, bu dunyoda, illo-billo, qanday jin ursa-ursin, bozorni izga solish uchun, avval nafsga bitta qo'riqchi qo'yishni uddalash kerak!"³⁷

Ikkinchi ma'nosi insonning insoniyligini, tabiatini, ma'naviyatini, komilligini belgilaydigan makon, maxak toshi. Xaqiqatan ham, bozordagi xatti-harakat. odamlarga bo'lgan munosabatda uning kimligi bilinadi. Bu borada yozuvchi shunday deydi: "Bozor - odamlarning asl basharasini kunday ravshan ko'rish mumkin bo'lgan eng qulay joy"(10-bet).

Adib bu haqiqatni obrazlar sistemasi orqali ochib beradi. Biz ularning qismati, ayrimlarining fojiasidan bu dunyodagi johillikni, adblatsizlikni sezib, nadomat chekamiz. Bu hol Naynov obrazida yaqqol namoyom bo'ladi, ya'ni uning fojiasida.

Romanda Xodivoy, Sabridin kabi obrazlar ham faoliyat yuritadi. Ikkilasi ham bozor xodimlari bo'lishiga qaramay, o'z sa'y-harakatlari bilan keskin farq qiladi. Xodivoy - pattachi. U - o'ta qallob, lag'anbardor, o'z manfaatidan boshqa tashvishi yo'q, bu yo'lda har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan odam. U - nayrangbozligi tufayli har qanday vaziyatdan ziyon-zaxmatsiz "omon" chiqadigan kishi. Romanda bozor xaqida shunday fikr bor: "Ha bozor aynidi... Aynitdi ham holva, cho'kayapti!.. yeri. cho'kib ketyapti... Buzish-ko'chirish bilan buni epaqaga

³⁷ Хуршид Дўстмуҳаммад. Бозор. -Т.: Шарк, 2000, 90-бет. Бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдаи олинади ва фақат бети кўрсатилади.

keltirib bo'lmaydi. Bozor o'zicha emas, odamlarning ayniganini, odamlarning cho'kib ketayotganini ko'rsatish uchun ayniyapti, cho'kayapti" (102-bet). Bu o'rinda bozor - dunyo ma'nosida. U yerda yuz berayotgan talotumlar dunyoni yemirib boryapti. Bu narsa Xodivoy singari odam taqdiri, kelajak uchun qayg'urmaydigan kimsalarning sa'y-harakati tufaylidir.

Sabridin halolligi, sabr-toqatliligi, nafsiga erk bermaslig'i bilan Xodivoydan keskin farq qiladi. U -shirin pazlar rastasining boshlig'i. U yerda ko'p yildan beri ishlaydi, boshqa amalga, garchi bozor boshlig'iga yaqin bo'lsa-da, intilmaydi. Ishida tartib o'rnatgan, o'zi doimo nazorat qiladi. Bu haqida romanda shunday deyiladi: "...muomalasi, bosiq'lig'i, sermulohazaligi bilan boshqa rastaboshlar orasida Sabridin aka ajralib turar, buning boisi, ehtimol otasi aytmog'chi, "Sabridinning bozor odami emasligida", Demak, u - diyonatli., ma'rifatli odam. Dunyoning yashab turi-shi shular tufaylidir. Yozuvchi shunga urg'u beradi.

Qosimbek bozorboshi obrazi ham katta umumlashmaga ega. U qirq yildan beri bozorga boshchilik qiladi. Shu yillar davomida bozorni yaxshilashga, uning "aynimasligi"ga harakat qildi. Lekin uning chorasini topa olmadi. Bir tomonini yaxshilasa, ikkinchi tomoni o'pirildi. Va, nihoyat, shunday xulosaga keladi: "Bozor kunpayakun bo'lib ketmasligi uchun ham o'zi insofiylarni topishga, ko'paytirishga ularga quloq solishga majbur bo'ladi. Burgadek urchiyotgan illatlarga qarshi insofiylar bozor posongisini saqlaydi" (156-bet). Bu fikrning katta haqiqatga egaligi shubhasizdir.

Ma'lumki, hayotni moddiy yoki texnika emas, ma'rifat, ma'naviyat izga soladi. Qosimbek bozorboshi tilidan yozuvchi to'g'ri fikrni ilgari suradi. Qosimbek yana shunday fikr bildiradi. Bozorning tanazzuli qiroatxona qarovsizligining kasofatidir, hoynahoy. Demak, Qosimbekning fikricha, insoniylikning asosi bilim-ma'rifatdir. Bu to'g'ri falsafiy haqiqat. Umuman olganda, romanning asosida shu fikr yotadi.

Romanda yozilishi bo'yicha, bozor timida shunday maxluq, ya'ni "Bo'yi bir qarich ham chiqmaydigan, na olmaxonga, nada tulkiga o'xshaydigan turqi sovuqdan-sovuq bir maxluq qopchiqdan tinmay nimadir olib, tamshana-tamshana

chaynar va irkit ogʻzidan toshib chiqayotgan soʻlagini qayragʻoch ostida toʻplanishib turgan ajab zotlarning boshiga oqizar..."

Bu yeb toʻymas yuhoni hech kim hech narsa qila olmaydi. U nafs boʻlib, uni faqat imon, yaratganga chuqur eʼtiqod bartaraf qilish mumkin. Bu borada Qur'oni Karimda shunday yoziladi: "Albatta, koʻp odamlar ilmsizligʻi uchun havo nafsga berilib, yoʻldan adashadilar". " Zolimlar ilmni koʻyib, havo nafsga ergashadilar". Chunki ilmli odamgina Olloh va hayotning mohiyatini anglaydi.

Romanning yetakchi qahramonlari: Fozilbek va Qadriya. Fozilbek — Qosimbek bozorboshining kenja oʻgʻli. U tugʻilganda, onasi oʻlgan. Shundan u hayotda emin-erkinmas qisilib-qimtinib oʻsgan. Lekin Diyorbekdan oʻz nafsini jilovlay olishi, bozor ishlari bilan koʻpda qiziqmasligi, mulohazakorligi, koʻproq ezgu ishlarga moyilligi bilan ajrab turadi. Yoshi bir joyga borib qolganiga qaramay, uylanmagan. Chunki u oʻzining didi, tabiatiga mosini uchratmagan. Uylantirish harakatlari orqali biz hayotning koʻp quchmoqlariga kirib chiqamiz, odamlarni uchratamiz. Bularning barchasi Fozil ishtirokida kechadi. Uning oʻz yaqinlariga va doʻstlariga munosabatida, yaxshi aʼmollaridan uning haqiqiy fozilligi boʻy koʻrsatadi. Va, nihoyat, oʻz idealidagi qizni uchratadi. Bu kutubxonada ishlovchi Qadriya edi. Bu borada yozuvchi shunday deydi: "...Qadriyadek chehrasidan oppoq nur, sutga chayilgandek tozalik, sirli mahzunlik ufurib turgan qizni uchratmagan". Ha, u mas'um, mahzun qiz ramziy ma'noga ega. Ya'ni milliy qadriyatlarining mohiyatini anglovchi, qadrllovchi, asrovchi ma'nosi singdirilgan. Qosimbek bozor boshi umrining oxirida ularning toʻyiga oq fотиha beradi. Demak, bozorni -hayotni ishonchli odamlar qoʻliga topshiradi.

Ulugʻbek Hamdamning "Muvozanat" romani³⁸ juda vaqtida yozilgan asardir. Haqiqatan xam, mustaqillikning dastlabki arafasida odamlar ham zohiriy, ham botiniy muvozanatimi yoʻqotib, ancha afgor holga tushib qolishgandi, roman xuddi shuning mohiyatini ochib beradi.

Romanning bosh obrazi - Yusuf. Asarning barcha voqealari unga bogʻliq ravishda yuzaga keladi. Toʻgʻri, u hamma voqsalarda bevosita, ishtirok etmaydi,

³⁸ Улуғбек Ҳамдамов. Мувозанат. – Т.: 2004. –Б.71.

lekin ularning yuzaga kelishi uning sa'y-harakatisiz bo'lmaydi. Bundan ko'rinadiki, Yusuf asarning o'q ildizi va go'yo ko'zgusini tashkil qiladi. Chunki biz u orqali hayotning hamma puchmoqlaridagi holat va vaziyatlaridan, shuningdek, odamlarning iztirob hamda fojialaridan xabardor bo'lamiz.

Yusuf obrazi orqali ham shahar, ham qishloqdagi mustaqillik arafasidagi o'zgarishlar, u tufayli o'z qalb muvozanatini, ya'ni tayanch nuqtasini boy bergan kishilar qismatidan ogoh bo'lamiz. Yusuf ziyoli, universitetda tarixdan dars beradi. U o'z xalqi va davlatchilik tarixini, madaniyatini, axloqini yaxshi biladi, undan faxrlanadi. Shundan u hayotga xamisha nekbinlik bilan boqadi, bu narsalar o'tkinchi ekanligini, kelajakning yaxshi bo'lishiga ishonchni yo'qotmaydi. Shundan botiniy tuyg'u, idrok zohiriy hayotga uyg'un bo'lmasa-da, qalb muvozanatini saqlaydi. Bu katta axloqiylik va insoniylikdir.

Yusuf o'z oilasidagi va qishlokdagi xonadonidagi yetishmovchilikka jamiyat aybdor deb bilmaydi, undan nolimaydi, uning sababini zohiriy olamdan qidirmaydi. Balki botiniy olamdan, ya'ni o'zidan topishga intiladi. Buning birdan bir chorasi ma'naviy ehtiyojni qondirish, deb biladi va to'g'ri qiladi. Ma'lumki, insonning ma'naviy ehtiyoji qonmas ekan, u hech qachon o'z hayotidan mamnunlik tuyg'usini tuya olmaydi, shuningdek, o'z nafsini va noinsoniy harakatlardan tiyishga qudrati yetmaydi. Bu haqiqat Yusuf obrazida haqqoniy o'z ifodasini topgan. Yusuf ma'naviy boy-likka ega bo'lgani uchun juda qaltis vaziyatda ham o'zini noinsoniy harakatdan to'xtata oladi.

Yusuf fransuzlar Toshkentda ochgan kiyim-kechak magazinining poyabzal bo'limida ishlay boshlagach, moddiy jihatdan o'zini tiklaydi. Ana o'sha paytda do'sti Mirazimga hiyonat qiladi, ya'ni xotini Zahro bilan yaqinlik qila boshlaydi. Bundan ko'rinadiki, moddiy boylik kishini to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Biroq qalbidagi nur hayot taqozosi ila xira tortgani bilan so'nmagan edi. O'sha nur ma'naviy ehtiyoj sari undadi. Oqibatda moddiy ta'minot hayotini yaxshilanishiga qanchalik imkon bermasin, undan voz kechib, o'qituvchilik kasbiga qaytadi, ya'ni ma'naviy ehtiyoj sari qadam tashlaydi. Shundan keyin vijdon azobidan qutilishga

intilib, Zahro bilan aloqasini uzishga qat'iy qaror qiladi, uning uddasidan ham chiqadi.

Inson boshiga tushgan kulfat, fojidan qutilish uchun tashqi olamdan emas, botinidan madad tilasa, qalbidagi muvozanatni saqlab qoladi. Yusuf shunday qiloldi. Fizika-matematika fanlari nomzodi Ergash esa bunday yo'l tuta olmadi, shunday bo'lganiga kuyindi. Unga malhamni esa botinidan emas, tashqi olamdan, ya'ni ichimlikdan qidirdi. Oqibatda qalb muvozanatini yo'qotib, butunlay tanazzulga yuz tutdi. Bu haqiqat juda katta tarbiyaviy kuchga egaligi isbot talab qilmaydi.

Miraziz va Saidlarning turmushida moddiy farovonlik bo'lsa-da, qalb muvozanati buzilgan, posongisi to'g'ri emas, ya'ni nafs posongisining toshi og'ir. Shundan bu oila tanazzulga mahkum. Zahroning bosgan qadami xonadon poydevorining yemirilishidan dalolatdir. Said oilasida esa o'pirilish yuz berib bo'ldi. O'zini esa Ergash xoliga tushishi muqarrardir.

Ergash qismati, fojiasi nihoyatda ta'sirli va muhim umumlashmaga ega.

Uning xatti-harakati, tutgan ishidan bitta o'zi ozor topmaydi, balki uch bolasi, kasalvand xotini, keksa ota-onasi, umuman olganda, butun qarindosh-urug'i iztirob chekadi. Amir uchun bu dunyo yolg'on dunyo, xaqiqiy chin dunyo narigi dunyo: U o'zini narigi dunyo saodatiga muyassar bo'lishga tayyorlaydi. Lekin kishi bu dunyo saodatiga erishsa, narigi dunyo saodat eshigi ochilishini anglashga aqli noqislik qiladi. Ma'lumki, bunga kishi yaxshi a'mollar orqali muyassar bo'ladi. Amirning miyasiga goh-goh shunday fikr kelib qoladi. Unga amal qilishga intiladi. Lekin uning tub mohiyatini anglamagani uchun bu yo'lda qilgan ishi gunohi azim bo'ladi. U harom deb daladan yig'ib bosib qo'yilgan somonni qayta dalaga olib borib to'kadi. Uni ertalabgacha bitta qo'ymay odamlar tashib ketadi. Muhtojlarga yordam berish kerak, deb uyning, bolalarning ehtiyoji uchun sotilgan sigirning pulini olib, bozordagi devonaga usti-bosh olib kiyintiradi, yaxshi ovqat olib bo-rib, qolganini qo'lga beradi. Vaholanki, oila, bolalarning rizqini qiyish gunohi azimdir. Qur'on Karimda shunday deyilgan: "Ota-onaga, qarindoshlarga, yetimlarga, qarindoti-qo'shnilariga, oddiy qo'shnilariga, oila azolaringizga yaxshilik

qilinglar" ("Niso" surasi, 36 - 37-oyatlar). Amirning fojiasi ijtimoiy mazmunga ega.

Romandagi o'lim tasvirini ba'zi bir adabiyotshunoslar ko'payib ketgan deb e'tiroz bildirishdi. Lekin sirdan qaraganda, shunday tuyuladi. Aslida esa, har biri maqsadga qaratilgan bo'lib, o'z funkdiyasiga ega. Masalan, Yusufning o'g'li Abdullajon o'limida Gippokrat qasamini ichgan bugungi oq xalat kiygan tibbiyot xodimlarining haqiqiy qiyofasi ochib beriladi. Gulshoda o'limida esa mustaqillik arafasidagi qiyinchiliklar o'zining realistik ifodasini topishi bilan birga, mening yo'q bo'lishim bolalarimga yengillik olib keladi, deb tor o'ylashlik, shuningdek, sabr qilmay, Ollohning irodasiga qarshi borishlikning oqibati ko'rsatiladi. Chunki Gulshoda o'zini osish fikridan qaytgan edi, ammo tasodifan o'lim topadi. Cho'ponning ikki farzandining sel tagida qolib ketishi, cholning qilmishiga ko'ra Ollohning jazosidir.

Adibning "Isyon va itoat" romani³⁹ ham muammoli bo'lib, unda itoat va isyonning mohiyatini badiiyat orqali ochib berishga urinadi ya'ni qahramonlari qismatida, o'y-fikr, mulohazada, sa'y-harakatida ko'rsatishga intiladi. O'zining qarashlarini tabib orqali ilgari suradi. U shunday deydi: "Men, nihoyat, isyon azobidan forig' bo'lib, ozodlikka chiqqandim. Ozodlikning ismi esa Itoat edi... Shunda qarshimda hayotning mazmuni, tug'ilish va o'lishning ma'nosi yarq etib namoyon bo'lganday edi: u Itoatda, insonlik qismatiga ko'nikishda edi. Yo'q, bu shunchaki ko'r-ko'rona emasdi, balki anglash va tushunishdan keladigan buyuk Itoat - Yaratganga tobelik edi, Chunki mendagi Isyon Itoatning ichiga, uning bir bo'lagiga aylanib o'zga ma'-no kasb etgandi"⁴⁰.

Bu o'rinda, itoatni tor ma'noda, ya'ni tobelik, barcha narsaga so'zsiz bo'ysinish, unga qarshi bormaslik deb tushunish kerak emas. Itoat Olloxdan qo'rqib, noinsoniy xatti-harakatdan o'zini tiyish, doimo ezgu a'mollarni bajarish, irodasini unga bo'ysundirish dsmaqdir. Bu haqida islom dini bilimdoni Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday deydi: "Olam hozirgi kunda

³⁹ Улуғбек Ҳамдамов. Исён ва Итоат. - Т.: 2003. –Б.39.

⁴⁰ Улуғбек Ҳамдам. Исён ва итоат. - Т.: Янги аср авлоди, 2003 й. 98-бет. Бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олинади ва фақат бети кўрсатилади.

axloqsizlik, razolat va jinoyatning keng tarqalganidan ayanchli ahvolda qoldi. Buning sababi inson Allohni esdan chiqarishi, uning ulugʻligini unutishdir. Alloxdan qoʻrqishlik doimo insonni yaxshilik choʻqqilariga olib chiqqan.

Kishining oʻz parvardigoridan qoʻrqishining chegarasi boʻlib, u noumidlikka yetib bormasligi kerak. Faqat qoʻrqitish asosida qilingan tarbiya, islom nazarida, notoʻgʻri tarbiya hisoblanadi. Chunki bunday tarbiya qalblardagi nurni soʻndiradi va yaxshilik alomatlarini berkitadi⁴¹. Demak, kishi yaxshi a'mollari shunchaki qoʻrquvdan emas, bal-ki uning mohiyatini anglab, oʻz hohishi, qalb da'vati bilan bajarish lozim. Bu borada Kur'oni Karimda shunday deyi-ladi: "Va (Ollohning dini bilan) oʻnglab qoʻyilganidan key-in, yerda (kufr yoʻlini tutib) buzgʻunchilik qilmang! U zotga (azobidan) qoʻrqib, (rahmatidan) umidvor boʻlgan holingizda ibodat qilingiz! Zero, Ollohning rahmati chiroyli amal qiluvchidarga yaqindir" ("A'rof" surasi, 56-oyat).

Albatta, Ulugʻbek Hamdam itoatning mohiyatini shunday anglaydi, biroq badiiy talqinga kelganda, uning koʻlami torayib qolgan, ya'ni Ollohga itoat etishning mohiyati, uning samarasi aniq tasvirida epik koʻlamida oʻz ifodasini topmagan. Bu narsa tabib obrazidagina koʻrinadi, lekin uning ezgu ishlari faqat davolashgina, falsafiy qarashlari esa hayotiy tartib qoidalarga soʻzsiz boʻysunish targʻibidan iborat boʻlib qolgan. Mazkur hol aniq tasvirda boʻlmay, bayonda boʻlgani uchun kishi shuuriga uncha yetib bormaydi.

Isyon masalasining ham mohiyati keng ochilmagan. Ma'lumki, inson komillikka erishish uchun bir umr tabiiy istaklarni cheklash, ongning ruhiy ehtiyojini qondirish yoʻlida botinida kurash ketadi. Tabiiy istak havo nafsdir. Agar u ustun kelsa, hayotiy muvozanat buziladi. Qur'onda havo nafs "buzgʻunchi" deb sifatlanadi: "Agar Haqiqat - Kur'on ularning havo nafslariga ergashsa edi, albatta osmonlar, yer va ulardagi bor jonzot buzilib, halok boʻlar edi" ("Moʻminlar" surasi, 7 -oyat). Nafsnı yenggan inson bu bilan cheklanib qolmaydi. U endi tashqi illatlarni bartaraf qilish, dunyoning kajraftorligining mohiyatini anglash, gʻofil gumrohlarning koʻzini ochish yoʻlida harakat qiladi, shu yoʻlda kurashadi.

⁴¹ Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Имон. - Т.: Камалак, 1991. –Б. 87.

Demak, sulukatli inson - hamisha ham zohiriy, ham botiniy kurashda, isyondadir. Bu isyonga Olloh qarshi emas, chunki u haqiqiy ishq, ya'ni o'ziga yetishish yo'lida qilingan harakatdir, Ustozi romanning bosh qahramoni Akbarga shunday deydi: "Sening iching to'la g'alayon, isyon... Yo'lga chiqmog'ing kerak!" - dedi u. Biroq qanday yo'l? Sayohatmi, turmush tarzini o'zgartirishmi va yoki mashaqqatli mushohada yo'limi? -buni bilmaydi, Akbar" (8-bet).

Akbar bilmaganday kitobxon ham anglamaydi. Qachonki Akbar o'z o'quvchisini urib, qamoqqa tushgach, kitobxon taxmin qila boshlaydi. Demak, u hayotdagi sa'y-harakati, o'y-fikrlari orqali, shuningdek, bu yo'lida qanchalik iztirob chekmasin, pohaklikka duch kelmasin, o'zligini yo'qotmay ezgulikdan saboq beradi, deb o'ylaydi. Va bu yo'lida qilgan isyonidan olamni va insoniylik mohiyatini anglab, shuurimizga shuur qo'shiladi deb umid qiladi. Afsus unday bo'lmaydi. To'g'ri, qamoqdagi hayotdan kishi bir saboq oladi. Bu ham bo'lsa, kishi har qanday qiyinchilikka tayyor turishi kerak, o'zini chiniqtirish lozim. Shundagina inson sifatida maxf bo'lmaydi degan. Bu yaxshi g'oya, albatta. Biroq keyingi voqealar bunday kuchga ega emas.

Akbar qamoqdan qaytgach, biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'ladi. Rossiyaga ortgan qovunidan uchdan biri ham yetib kelmaydi. O'rtada janjal chiqadi. Qamoqda mushtlashishni haddini olganidan shofyorni uradi. Haydovchi Chelyabinsklik bo'lib, u Akbarni shu yerning mafiyasiga sotadi. Ular haydovchining haqqini berishib, qolgan qovunning hammasini tortib oladi. Akbarni uy qamog'iga solib qo'yishib, uyiga qo'ng'iroq qilishini, yana shuncha qovun jo'natishni talab qilishadi, Akasi Nurmat kelishilgan yukni yo'lida sotib, qaytib ketadi. Yuk kelmagach, Akbarni o'lasi qilib urishadi, hatto o'ldirmoqchi bo'lishadi. Akbar taqdirini ularning qo'liga topshirib, o'limiga tik boqadi, oqibati shu bo'ladi, "Boss", "erkak bitta senmi dunyoda?" - deb ustiga bir dasta ko'kidan tashlab, g'oyib bo'ladi. Albatta, kishi bunga ishonmaydi. Chunki uni hayotiy mantiq inkor qiladi. Sababi ma-fiya hech qachon bunday qilmaydi, ularning ximmati - nari borsa, tirik qoldirish. Uning uzoq yo'lga chiqishidan olgan sabog'imiz shu bilan nihoyasiga yetadi. Shunga qaramay, oson kelgan pulni ezgu

ishlarga sarf qilar deb umid qilamiz. Lekin unday bo'lmaydi. U shaharga keladi, kiyinadi. Uch xona uy sotib oladi va podezdida yashaydigan Diana ismli fohisha qizni yaxshi ko'rib qoladi. Bu borada romanda shunday yoziladi: "Ko'pqavatli uyning Akbar borayotgan burchagida notanish yigit va qiz bir-birining pinjiga kirib shivirlashayotgan edi. Yakinroq borganida, qiz Akbarning ko'ziga Diana bo'lib ko'rindi. Bag'rida bir zumlik lohaslikni his qildi: tilidan beixtiyor "Diana!" degai xitob chiqdi... "Qaydanam yopishdi menga bu dard?" - zinadan asta ko'tarilib borarkan, Akbar o'ziga-o'zi shunday savollar berardi" (74-bet). Bu ishq emas, hissiyotning junbushga kelishidir. Chunki ikki kokilday farzand, gulday o'qimishli, rayon gazetasining bosh muharriridek xotini bo'lgan, tagi o'qituvchi odam hayotda bunday qilmaydi. U Dianaga uylanadi. Gavay orollarida, Avstraliya tog'larida dam olishadi. Buning hammasi mafiya bergan pul hisobiga bo'ladi. To'g'ri, uning tahririyatga ishga kirgani aytiladi. Lekin undan olgan maoshi bilan bunday imkoniyatga erishib bo'lmasligi barchaga ayon. Mafiya bergan pulni hech tugamasligi ham ajablanarli hol, Xullas, Akbar 20 yildan keyin kishlog'iga, o'z oilasi quchog'iga qaytadi. Sabab u shuncha yil isyonda yurib, endi itoat sari yuz buribdi. Uning isyoni hayotning tartib-qoidalari, uning axloq normalariga rioya qilmay hayot kechirgani ekan. To'g'ri, Akbarning bosib o'tgan yo'lida shu hol kuzatiladi, biroq u ko'p o'rinda bayonda kechgani uchun katta ta'sir kuchiga emas. Lekin sa'y-harakati isyon emas, gunohga botish, insoniyliqdan chekinishdan boshqa narsa emas. Ma'lumki, gunohga qo'l urgan odam, agar kechikmay tavba qilmasa, Ollah tomonidan unga jazo va ajrim bordir. Bu haqida Qur'oni karimda shunday deyiladi: "Na gunoh ishlarni mudom qilib yurib, qachonki "birovlarga o'lim kelganida "endi tavba qildim", deydigan va kofir holda o'lib ketadigan kimsalarning tavbalari qabul qilinmas. Ular uchun alamli azobni tayyorlab qo'yanmiz" ("Piso" surasi, 18-oyat).

Isyon va itoatning boshqa obrazlar talqinida ham shunday ko'lami tor g'oya ilgari surilgan. Romanda Tursunboy jontalash obrazi bor. Uning hayoti va xonadoni misolida mustaqillik arafasidagi qishloq aholisining turmush tarzi, u yerdagi muhit yaxshi ochib berilgan. Lekin uning qismatidan yozuvchining keltirib

chiqargan xulosasiga qo‘shilish qiyin. U daladan kelib, uyida ishlaydi, yarim tunda yotib, azonda dalaga o‘tlanadi. yeyishining tayini yo‘q: "Yuz-qo‘lini yuvib ichkariga kirganida, hamma uxlagan, uy tiptinch edi. Oshxonaga o‘tib, qozonning qopqog‘ini ko‘tardi. Suyuq ovqat. Cho‘michni aylantirib ko‘rdi - 3 - 4 ta kartoshka va tuxum bo‘laklari: demak, tuxum sho‘rva. Biroq isitishga eringanidan tokchada usti sochiq bilan yopilgan - ertalab o‘zidan qolgan qovunni tik turgan kuyi tilimlab yeya boshladi" (34-bet). Bu hol deyarli har kuni takrorlanadi. U ish deb akasining to‘yiga ham bormaydi. Xullas, qizilo‘ngachidan saraton kasaliga chalinib, olamdan o‘tadi. Bunday jazoga mahkum bo‘lishi Yaratganga itoat qilmay, isyon qilganidan, deb xulosa chiqaradi adib. Uning issni - el-yurt, odamgarchilikdan chiqib, akasining to‘yiga bormagani. Bunday jazoni islom rad etadi. Chunki Tursunboy jontalash kech bo‘lsa ham, uzr so‘rab, akasining to‘yiga boradi. Akasi esa senday ukam yo‘q, deb uyidan haydaydi. Bundan ko‘rinadiki, gunohkor uka emas, akadir. Chunki kechikmagan uzrni, afvni Olloh qabul qiladi. Mana bu haqida Qur'oni Karimda nima yoziladi: "Afv qilmog‘ingiz, ko‘ngilni keng tutmog‘ingiz va kechirmog‘ingiz yaxshidir. Albatta, Olloh kechiruvchi va rahmdildir" ("Tag‘obup" surasi, 14-oyat).

Larisa xola qismati va undan chiqarilgan xulosaga ham qo‘shilish qiyin. U yoshligida yaxshi yashaydi, taralabedod qilib yuradi. Oila farzand haqida o‘ylamaydi, qarindoshlari bola ko‘rish haqida gapirganda, ularga qarata shunday deydi: "Fu, bola tug‘ish menga to‘g‘ri kelmaydi... Dunyoda hammaning o‘z ishi bor. Menga o‘xshab dunyo kezishni, katta-katta ishlarni eplay olmaganlar uyida o‘tirib bola tug‘adi. Endi menam shunday mavqyeimning qadriga yetmay, sizlarga o‘xshab tug‘ib yotaymi?.. (100-bet).

Lekin qariganda, yolg‘izlanib qolganda bunday qilib xato qilganini anglaydi va pushaymon qiladi. Bu - tabiiy hol. U ibrat va tarbiyaviy kuchga ega. Biroq yozuvchi undai boshqacha xulosa chiqaradi. Ya'ni qarindoshlari gapiga kirmagani - uning isyoni, o‘kinishlari esa vaqtida qilmay, kechikkanidir.

Bir kuni Larisa xola eski tanishini uchratadi. U qirq yil birga ishlagan Dmitriy bo‘lib, juda afgor holda edi. Bu haqida romanda shunday yoziladi: "Dmitriy amaki

kaftlari nimanidir tutganini his qilgani hamon unga qarab engashdi. Larisa xola "o'pmoqchi" deb o'yladi, bir pasda ko'zlariga yosh qalqdi. Biroq barmoqlaridan birini Dimaning og'zida sezgani hamon sergak tortdi. Chamasi, Dima amaki uni biron yegulik deb bildi va zo'r berib tishsiz milklari bilan tishlamoqchi bo'lardi... Xola qo'lini tortib oldi-da cho'chib orqasiga tislendi" (118-bet). Mazkur holdan so'ng o'zini ham shu ahvolga tushib qolish ehtimoli borligini sezib, derazadan o'zini yerga otib, halok bo'ladi. Ma'lumki, o'z joniga qasd qilishni barcha din qoralaydi. Negaki berilgan umrni o'z qo'li bilan qisqartirish — bu Ollohning irodasiga qarshi borish, ya'ni shaytonning qutqusiga berilishdir. Bundan va yuqorida aytilgan fikrlardan ko'rinyaptiki, adib isyon va itoatning haqiqiy mohiyatini ochib berolmagan, chalkashlikka yo'l qo'ygan. Demak, "Muvozanat" romanidek oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmagan, mahorat ham ko'rsata olmagan.

Bugungi adabiyot kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan keskin farq qiladi. Ya'ni odamning qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko'rinishlari inkishofi bilan, shuningdek, voqea-hodisalar tasvirining batafsilligi hamda ularning har biri maksad sari yo'naltirilgani, qahramonlarning o'ta milliy va individuallashtirishgani ila. Bir so'z bilan aytsak, voqea-hodisadap ko'ra, insonning, uning qalbi tahlili birinchi o'ringa chiqqan. Bu xususiyat Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanida to'la o'z ifodasini topgan. Asarda ovloq cho'l qo'ynidagi chulquvarlarning hayotiy kechinmalari, yashash tarzi, hayotdagi o'rni o'z ifodasini topadi. Romandagi qishloq hayotining va odamlari tabiati tasvirining quyuqligi, teranligi, batafsilligi bir sovxoz emas, go'yoki katta olamda yashayotgan odamlarning hayoti aks ettirilganday taassurot uyg'otadi. Biz voqea va hodisalar tasvirining batafsilligida odamlar ruhiyati teran ochib berilganligini L. Tolstoy, Dostoevskiy asarlarida ko'rgan edik, o'zbek adabiyotida ham shunday xususiyat boshlanganligi kishini xursand qiladi, albatta.

Romandagi har bir qahramon o'z qiyofasi, o'z dunyosiga ega. Ularning faoliyati, albatta, ezgulikka da'vat etadi yoki yomon harakatlardan qaytaradi. Bu

narsa aqlli gaplar yoki falsafiy fikrga ega bo'lgan nutq idrok etish bilan amalga oshirilmaydi, balki xatti-harakatning jonli tasviri, gap-so'zlarning hayotiyliigi, individualligi bilan maqsadga erishiladi⁴². Chunki ularda kishi o'zini ko'zguda ko'rganday ko'radi, oqibatda undan xulosa chiqaradi, bunga qobil bo'lmasa, iymanadi. Bunday xususiyatga erishish mahorat tufayligina bo'ladi.

Roman qahramonlari: yozuvchi qayd qilgandek, jaziradagi, ya'ni cho'ldagi odamlar, bir maktabda o'qishgan Safarmurod, Ergash, Chinor, ularning xotinlari: Maysara, Toshbibilar; Ulash agronom, uning xotini Zumrad; Fayzulla buxgalter, uning xotini Hosiyat xola; Uroq, Ashur, Samad, Lolaxonlardir.

Yozuvchi har bir nojo'ya xatti-harakatni o'z hisob-kitobi borligini Safarmurod, Ulash agronom qilmishlarida juda ustalik bilan kishiga anglatadi. Umuman olganda, romanning barcha voqea-hodisalari asosida insoniy fazilatlar va illatlar mohiyatini ochish, ularning samarasi hamda oqibatining inkishofi yotadi. Insoniylik zamirida ma'naviyat yotishi, ma'naviyatning negizi ilmga borib taqalishini to'g'ri ko'rsatadi.

Sovxoz direktori — ana shunday ilmi odam. Shundan u vaziyatni oldindan belgilay biladi va falsafiy mushohada qiladi, kelajakni o'ylaydi. U do'sti Ergashga qarata shunday deydi: "Ergash, - dedi Chinor aka ham o'ydin, ham ichkilikdan peshonalari tirishib, — Sho'rlab ketyapmiz... cho'l qarshilik ko'rsatyapti... tag'in, uch-to'rt yildan so'ng hosil olish nari tursin, urug' ham unmay qoladi...

— Qo'yaver... Kelgusi planni bajarmasang, ko'p bo'lsa direktorliqdan olishar... Ochingdan o'lmassan...

- Yo'q... yo'q... - deya Chinor aka gapni bo'lishga urindi. -Bolalarchi, bolalar..." (19-bet). Bu yerda sho'rlash ikki ma'noga ega. Birinchi ma'nosi, odamlar ichkilikka berilib, loqaydlashsa, yer kabi sho'rlab, o'zini o'zi tamom qiladi. Ikkinchi ma'noda, tabiatning qudrati o'z ifodasini topgan. Agar inson aql-zakovati va jismoni ila unga qarshi bormasa, hamma narsadan judo bo'ladi, inson nomini oqlay olmaydi. Chinor aka odamlarga qarata shunday deydi: "Yo'-o'-o'q, jigitlar, o'zimiz aynidik, yonboshlabgina yeb yotamiz, degan xomxyolga bordik" (27-bet).

⁴² Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. - Т.: 2002. –Б.39.

Bu fikr ham siyosiy, ham hayotiy mazmunga ega. Yotib yeganga tog‘ chidamaydi. Kechagi sotsializm jamiyatida odamlar shu kayfiyatga kelib qolgan edi. Buning oqibati barchaga ma'lum. Ayniqsa, istiqlol davrida uning mohiyati yanada oydinlashdi. Demak, Chinor Meyliev ham dunyoviy, ham zamonaviy shaxs. Uning zamiri, asosi esa bilim va uni hayotga to‘g‘ri yo‘naltirishda. Bunday ruxdagi odamlar chinor kabi gurkiraydi va odamlar ular bag‘rida yashaydi. Romandagi Abdulla badqovoq va Ergash akalar obrazida ham shu fikr yotadi. Chunki ular har bir ishga aql bilan yondashganlari uchun turmushlari tinch va farrvon.

Lolaxon fojiasining ildizi chuqur. U ham siyosiy, ham insoniylik xususiyatiga ega. Siyosiy tomoni sotsializm g‘oyasini zo‘rlilik bilan boshqa gortga singdirish asosida yuzaga kelgan. Afg‘on urushiga borib taqaladi. Zo‘ravonlikning nihoyasi hamisha fojia. Insoniylik jihati esa Durbekning kalta o‘y va pastkashligi, Ashurdagi ruhiy muvozanatning buzilishiga borib taqaladi. Lekin ko‘pchilik Ashurning or-nomusni himoya qilishda o‘zbek millatining mentalitetiga bog‘lab oqlashi mumkin. Biroq asossiz, isbotsiz qilingan har qanday harakat tentaklikdir. Chunki Kur'oni Karimda shunday deyilgan: "Ey, mo‘minlar, agar sizlarga bir fosiq kimsa biron xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biron qavmga musibat yetkazib qo‘yib, qilgan ishlaringizga afsus-nadomat chekib qolmasliklaringiz uchun (u fosiq kimsa olib kelgan xabarni) aniqlab-tekshirib ko‘ringlar" ("Hujurot" surasi, 6 — oyat).

Yozuvchi roman oxirida Lolaxon qismati haqida eshitganlarini, ya'ni "u kasalxonaga yetmay jon taslim qilgani, yana bir mujdaga ko‘ra uni qarindoshlari shaharga olib ketganligi, zo‘r-zo‘r do‘xtirlar qarayotganligini, hozir ancha tuzalib qolganligini" yozadi. Bunday mavxumlikda katta falsafa yotadi. Bu bilan adib go‘zallik, ezgulik, sadoqat o‘lmaydi. Insoniyat bor ekan, u yashaydi demoqchi. Romandagi yoshlar obrazida bugungi kunda bir qadar andishasizlanib, ayyorlashib, sofligi yo‘qolib borayotganligini juda ishonarli ochib berilgan. Ayniqsa, bu borada Shabnam obrazi, Maysara, Toshbibilarga qiyos qilinganda bugungi ko‘p yoshlar axloqi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hulosa

Bu davr o'zbek romanchiligida yaqin o'tmish haqida yozilgan asarlar ko'pchilikni tashkil etdi. Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar», Odil Yoqubovning «Adolat manzili», O'lmas Umarbekovning «Fotima va Zuhra», Shukur Xolmirzayevning «Olabo'ji», O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Mirmuhsinning «Ilon o'chi», Omon Muxtorning «Tepalikdagi xaroba», Uchqun Nazarovning «Chayon yili», Murod Mansurning «Judolik diyori», Tog'ay Murodning «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanlari shu davrning mahsuli bo'lib, ularda davr voqeligi turli rakurslarda tasvirlangan. Bu asarlarda oshkoralik va tanqidiy ruh kuchli. Zero, yozuvchilarimiz hayot haqiqatini ochib berishga harakat qilar ekanlar, kishilarimiz ongida, ruhiyatida kamol topgan insonparvarlik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni ulug'lash bilan birga, turmushda muayyan davrda ancha ildiz otgan mansabparastlik, qonunbuzarlik, manmanlik, diyonatsizlik, ko'zbo'yamachilik, nopoklik, vijdotsizlik kabi illatlarni dangal ochib tashlaganlar.

Shukur Xolmirzayevning «Olabo'ji» (1995) romanida hayotda tomir yoygan adolatsizlik, nopoklik, ma'naviy buzuqlik mohirona tasvirlangan. Asar voqealari Surxondaryo viloyati Olatog' tumanida, 80-yillarda, asosan o'n-o'n besh kun davomida bo'lib o'tadi. Shunday bo'lsa-da, roman xalqimizning so'nggi qariyb bir asrlik tarixiga doir xarakterli voqea va soxtaliklar haqida aniq tasavvur beradi. Chunki adib romanning voqealarini tasvirlash jarayonida xalq tarixini soxtalashtirish, chor imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishini oqlash, milliy urf-odatlarini oyoqosti qilish singari illatlarni keskin qoralagan.

«Olabo'ji» romanining bosh qahramoni tog' qishloqlaridan birida yashovchi Ulton Sultonov nomli yigit. U Toshkent dorulfununini tugatgach, avval viloyat gazetasida, so'ngra o'z qishlog'idagi maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Kamtarin hayot kechiradi. Kunlardan bir kuni uni tuman partiya qo'mitasining birinchi kotibi To'qliboy Qo'chqorov o'z huzuriga chorlab muhim topshiriq beradi. Qishloq markazidagi kasalxona bosh vrachi Bahor bilan birga Oqsuvdagi maktabni tekshirib kelishni buyuradi. Shu jarayonda bu ikki yoshni o'zaro yaqinlashtirib,

qovushtirib qo'yadi. Kotib rahbarligida bir hafta ichida ularning to'yi ham bo'lib o'tadi⁴³. Biroq xursandchilik uch kunga ham cho'zilmaydi. Tezda bu «xolis xizmat»ning misini chiqadi. Kotibning bu «xolis xizmati» ostida razil maqsad yotgani oshkor bo'lib qoladi. Tuman rahbari o'ynashini erli qilish orqali o'z sirini yashirmoqchi, aysh-ishratini davom ettirmoqchi ekan. Sir oshkor bo'lgach, kotib zo'ravonlik yo'lga o'tadi. Kuyov yigitni jinniga chiqarib, uni jinnixonaga tashlatadi. Bu haqsizlik tufayli sof vijdonli va oriyatli yigit Ulton Sultonov oxir-oqibatda atrofmi o'rab turgan soxtakorlik va yolg'onga, zulmga qarshi kurashadi. Uni hech kim tushunmaydi, hech kim qo'llamaydi. Ko'ngli toza, niyati to'g'ri yigit o'z yurtida hammaga begona olabo'ji holiga tushib qoladi.

Romanda Ulton Sultonov, To'qiliboy Qo'chqorov, Bahor obrazlari bilan birga, tuman partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi Tarakanov, qishloq direktori Bo'taboy So'piyev, qishloq sho'rosi raisi Tursuntosh, firqa kotibi Maxfirat Egamqulova, Zikriyo domla, mehnatsevar, pok vijdonli, sodda cho'pon Sulton bobo singari jonli obrazlar yaratilgan. Bu obrazlar xarakterini ochishda adib ruhiyat tasviri imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Romandagi asosiy obrazlar o'zlarining ichki va tashqi olami jihatidan bir-biridan aniq farq qiladi. Shu bilan birga, kitobxon yodida uzoq saqlanadi.

«Olabo'ji» romanida tabiat va jamiyat omuxtaligi hamda hayvonot dunyosining «siru asrorlari» ham aks etgan. Adib Surxon o'lkasi tabiatini mohirona tasvirlagan va roman g'oyasini ochishda peyzajdan unumli va o'rinli foydalangan. Bunda Shukur Xolmirzayevning o'ziga xos uslubi yaqqol namoyon bo'lgan⁴⁴.

Uchqun Nazarovning «Chayon yili» (1991) asarini ham 90-yillar o'zbek romanchiligining yaxshi namunasi sifatida tilga olish lozim. Romanda xalqning urush davridagi hayoti tasvirlangan. O'zbek adabiyotida ikkinchi jahon urushi mavzusida anchagina romanlar yozilgan. Lekin ularning aksariyatida urush davridagi hayot bo'yab-bezab, nuqsonsiz qilib tasvirlangan. Uchqun Nazarov esa «Chayon yili» romanida masalaga boshqacharoq yondashadi. Adib xalqning bu

⁴³ X. Каримов. Шукур Холмирзаев. - Т.: Қатортол, Камолот, 1999. –Б.89.

⁴⁴ X. Каримов. Шукур Холмирзаев. - Т.: Қатортол, Камолот, 1999. –Б.90.

davrdagi jonkuyarligini, fidoyiligini ko'rsatish bilan birga, front ortidagi noxushliklarni ham ro'yirost aks ettiradi. Bu jihatdan romandagi Murodxo'ja obrazi va uning kirdikorlari tasviri xarakterlidir. Yozuvchi romanda Oynisa, Qayumjon, Ma'sud kabi sof vijdonli kishilar obrazlarini tasvirlash bilan birga, Murodxo'ja, Hoshimjon singari nopok shaxslarning qiyofalarini ham chizib bergan. Shu orqali urush davridagi mamlakat hayoti qanday bo'lsa, shundayligicha ko'rsatgan. «Chayon yili» romanidagi yangilik ham, avvalo, ana shu haqqoniylik bilan bevosita bog'liq.

Qisqasi, mustaqillik davrida o'zbek nasri sotsrealizm tazyiqidan xalos bo'lib, hayotni yangicha badiiy aks ettirish yo'liga chiqib oldi va bu sohada muayyan yutuqlarga erishdi. Yozuvchilarimiz uzoq va yaqin o'tmish voqeligini yangicha tasvir etish bilan birga, bevosita mustaqillik davri haqida ham turli janrlarda xilma-xil asarlar yoza boshladilar. Natijada, adabiyotimizda mustaqillik davri voqeligini tasvirlashga, yangi davr qahramonlarini adabiyot qahramonlariga aylantirishga intilish va qiziqish ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Ko'plab hikoya va qissalar hamda «Dinozavr» (Sh. Xolmirzayev), «Albatta general bo'lasan» (B. Ro'ziyev), «Bozor» (X. Do'stmuhamedov), «Muvozanat», «Isyon va itoat» (Ulug'bek Hamdam) kabi yangi romanlar buning isbotidir.

Biroq bular yetarli emas. Adabiyotimizda mustaqillik davridagi xalq hayotini butun borlig'i bilan tasvir etuvchi yirik va qiziqarli asarlar kam. Agarda yozuvchilar uzoq va yaqin o'tmish mavzularini e'tibordan soqit qilmagan holda asosiy diqqatni mustaqillik davrining muhim masalalarini tasvirlashga, yangi zamon qahramonlari obrazlarini yaratishga qaratsalar, nur ustiga nur bo'lar edi.

Mavzuni tadqiq qilish jarayonida juda ko'p o'zbek romanlari bilan tanishib chiqdik. O'rganganlarimizdan kelib chiqib o'zimizning taklif va mulohazalarimizni bildirib o'tamiz:

√O'zbek romanlari asosida videofilm, kinofilmlarni suratga olish va ularni ommalashtirish;

√O'zbek romanlarini nashr ettirilishida mualliflariga iqtisodiy yordam berish;

√Darslik yaratishda o'zbek romanlaridan keng foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.
- 1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Каримов И. А. Жайхун соҳилидаги абадий шаҳар // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 56 б.
- 1.5. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 439 b.
- 1.6. Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятининг шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.7. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.8. Каримов И. А. Бизнинг йўлимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.9. Каримов И. А. Мустақиллик – барча эзгу режа ва марраларимизнинг мустаҳкам мезонидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг давлат мустақиллигининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Халқ сўзи. 2013 йил 2 сентябрь.
- 1.10. Каримов И. А. Амалга оширилаётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажакимизнинг асосий омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. O`zbekiston ovozi. 2013 йил 10 декабрь.

1.11. Каримов И. А. Тинчлик ва аҳиллик – мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигимиз асосидир // Ўзбекистон Республикаси И.А.Каримовнинг 9- май “Хотира ва кадрлаш куни” муносабати билан сўзлаган нутқи. O`zbekiston ovozi 2014 йил 10 май.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

II. Asosiy adabiyotlar

2.1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Т.: O‘zbekiston, 2000. -В. 49.

2.2. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. -Т.: Yangi nashr, 2010.

2.3. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. - Т.: Yangi asr avlodi, 2005.

2.4. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. - Т.: Yangi asr avlodi, 2002.

2.5. Hozirgi adabiy jarayon: tahlil va talqin. Maqolalar to‘plami. -Т.: 2005.

2.6. Mirzayev I. Nasrimiz badiiy olami. -Т.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991.

2.7. Karimov H. Shukur Xolmirzayev. -Т.: Qatortol, Kamolot, 1999.

2.8. Ikrom Otamurod. Ichkari... tashqari... -Т.: Sharq yulduzi, 1997. № 5.

2.9. Ikrom Otamurod. Sopol siniqlari. Sharq yulduzi. 1994, № 11-12.

2.10. Karimov H. Insoniy iztirob va tuyg‘ular//Sharq yulduzi. –Toshkent, 2003.-№ 2.

2.11. Karimov H. O‘zlikning badiiy ifodasi//O‘zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2003, 11 iyul soni.

2.12. Muhammad G‘azzoliy. Dunyo hayoti. -Т.: Sharq yulduzi, 1999. № 9-10.

2.13. Mustaqillik davri adabiyoti. –Т.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2006.

2.14. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. Ilmiy-tanqidiy, badialar. –Т.: G‘. G‘ulom, 2006.

- 2.15. Sharopova N. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida janriy izlanishlar tamoyili. O‘zbek tili va adabiyoti, 1996 yil, № 5.
- 2.16. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. -T.: 2005.
- 2.17. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. –T.: Fan, 2007.
- 2.18. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Fan, 2000.
- 2.19. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. - T.: Sharq, 2002.
- 2.20. Xolmirzaev Sh. Quyosh falakda kezib yuribdi. Hikoya. Yoshlik. 1997. № 1.
- 2.21. Xotam Umurov. Adabiyot nazariyasi. -T.: Sharq, 2002.
- 2.22. Xurshid Do‘stmuhammad. Ozod iztirob quvonchlari. - T.: Sharq, 2000.
- 2.23. Rasulov A. Tarix, falsafa roman. // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2000.
- 2.24. Ro‘zimuhammedov B. Nasrimizga befarq qaramayapmizmi? // O‘zAS. – Toshkent, 2001 yil, 7 dekabr soni.
- 2.25. Hasanov Sh. Doston janridagi o‘zgarish va yangicha badiiy talqinlar. O‘zbek tili va adabiyoti, 2000. № 2.
- 2.26. Turdimov Sh. Lirik kechinma va obrazlilik. O‘zbek tili va adabiyoti, 2000. № 5-6.
- 2.27. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. -T.: Sharq, 1999.
- 2.28. Ulug‘ov A. Inson ibratga intiladi // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2005. -№ 9.
- 2.29. Hasanov Sh. Dostonlarda shoir shaxsiyati talqini. O‘zbek tili va adabiyoti, 2001. № 3.
- 2.30. Cho‘lpon Ergash. Ra'noning savdosi. Sharq yulduzi. 1997. № 3.
- 2.31. Dunyo hayoti. Sharq yulduzi jurnali. 1995, № 9-10.
- 2.32. www.google.uz
- 2.33. www.ziyonet.uz